

B.BOYBOBOEV, D.MAMAJONOV

**O'ZBEKISTONDA
OLIMPIYA HARAKATI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

B.BOYBOBOEV, D.MAMAJONOV

O‘ZBEKISTONDA OLIMPIYA HARAKATI

(uslubiy qo‘llanma)

Namangan-2018

Uslubiy qo‘llanma Namanagan davlat universiteti Kengashi tomonidan 2018 yil 3 sentyabrda 1-sonli yig‘ilish 5.1-qarori bilan tasdiqlangan muvaqqat o‘quv dasturiga asosan ishlab chiqilgan.

Boyboboev B., Mamajonov D. O‘zbekistonda olimpiya harakati. Uslubiy qo‘llanma. – Namangan: NamDU. 2018 yil. -55 bet.

Mazkur uslubiy qo‘llanma I-2017-1-14/3 “O‘quvchi yoshlar uchun olimpiya ta’limining samarali tizimini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha asosida yaratilgan. Unda zamonaviy Olimpiya o‘yinlarining qayta tiklanishi, O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasining tashkil topishi va faoliyati, prezidentlari, Olimpiya akademiyalari, muzeylari Olimpiya o‘yinlari ramzlari hamda Per de Kuberten va uning zamonaviy olimpizm kontseptsiyasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sportchilarining Olimpiya o‘yinlaridagi ishtiroki xronologik tarzda tahlil etilib talabalarga yetkazilgan.

Ushbu uslubiy qo‘llanma uzluksiz ta’lim tizimi va jismoniy tarbiya va sport sohasining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya mutaxassisleri, o‘qituvchilari, murabbiylar hamda olimpiya harakatiga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mualliflar:

Boyboboev B.G’.

NamDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va sport fanlarini o‘qitish kafedrasini dotsenti

Mamajonov D.A.

NamDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va sport fanlarini o‘qitish kafedrasini o‘qituvchisi

Taqrizchi:

T.U.Ismoilov

NamDU Sport faoiyati kafedrasini dotsenti

SO‘Z BOSHI

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqi o‘zining fidokorona mehnatlari bilan jamiyat hayotining barcha sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib, jahondagi eng taraqqiy etgan davlatlar qatoridan joy oldi.

Mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash ulkan qadriyat hisoblanib, insonning baxtli yashashi, o‘qishi, mehnat qilishi uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda.

Axolini keng qatlamini jismoniy madaniyat va sportga jalb qilish va bu orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, kelajagimiz egalarini har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston sporti haqida gap ketganda, yeng avvalo, uning poydevori mustahkamligini, davlat va hukumat raxbariyati tomonidan uning taraqqiyotiga qaratilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikni aloxida ta’kidlash zarur. Mustaqillik sharofati bilan sportchilarimiz nufuzli xalqaro musobaqalarda yurtimiz sha’nini ximoya qilish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Hozirgacha sport olamining eng nufuzli musobaqasi bo‘lgan olimpiya o‘yinlarida yuzlab sportchilarimiz vatanimiz nomidan maydonga chiqib, yurtimiz shuxratini yanada yuksaltirishga ulkan xissa qo‘shib kelmoqdalar.

Yoshlarni sport faoliyatiga jalb qilish bilan birga sportning insonparvar g‘oyalarini, qadriyatlarini egallashga yo‘naltirish lozim. Bunda birinchi navbatda, sportchi o‘zida vatani sharafini ximoya qila oladigan, halol kurasha oladigan, qo‘pollik, ochko‘zlik, kuch ishlatish, yovuzlik, ya’ni ham sportni, ham shaxsni, ham jamiyatni yemiruvchi xodisalarga qarshilik ko‘rsata oladigan shaxsni, fuqaroni tarbiyalashi lozim¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shaxrida (Yaponiya) o‘tkaziladigan XXXII Olimpiya o‘yinlari va XVI Paraolimpiya o‘yinlariga tayyorlash xaqida”gi Farmoni², 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori³ va sport soxasiga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy xujjatlar bu masalalarning yechimi va xuquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bizga ma’lumki zamonaviy olimpiada o‘yinlari qayta tiklanishi bilan jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida alohida o‘rin egalladi, odamlarning turmush tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsata boshladi.

¹ Mualliflar jamoasi. “Olimp sari”. – Toshkent: “Navro‘z”, 2017. – 208 bet.

² Ўзбекистон Республикаси президентининг 2017 йил 9 мартдаги “Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) ўтказиладиган XXXII Олимпия ўйинлари ва XVI Параолимпия ўйинларига тайёрлаш хақида”ги ПФ-2821-сон Фармони.

³ Ўзбекистон Республикаси президентининг “Жисмоний тарбия ва оммовий спортни янада рикожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3031 сонли қарори.

Natijada jismoniy madaniyat tarixi, jismoniy tarbiya nazariyasi va sport harakati amaliyotida “olimpizm”, “olimpiya harakati”, “olimpiya ta’limi” va “olimpiya o’yinlari” kabi tushunchalar xalqaro hayotda ijtimoiy harakat bo‘lib xizmat qilmoqda.

Olimpiya harakati — bu jamiyat taraqqiyoti bo‘lib, u olimpiya g’oyalari va mafkurasi tamoyillariga tayanadi, shu asosda insonlar va tashkilotlarni ulaming millati, irqi va yashash joylaridan qat’i nazar o‘ziga birlashtiradi. Ularning sport, sport gimnastika va o’yinlarni o‘zlarining asosiy faoliyati deb bilishlariga ko‘maklashuvchi ijtimoiy faoliyatdir.

Olimpiya harakatining asosiy vazifalari quyidagicha:

- Olimpiya g’oyalarining tamoyillarini jahonga yoyish;
- Olimpiya sport turlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish;
- Sportni targ’ibot qilish, imkoniyat doirasida ulardan jismoniy, ma’naviy va estetik tarbiyada foydalanishni ifodalash;
- «Olimpiya birdamligi» (sohdamost) dasturini tarqatish (singdirish) yo‘lida sharoitlar yaratish;
- har to‘rt yilda bir marotaba Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik va uni o‘tkazish.

O‘zbekistonda olimpiya harakati taraqqiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, olimlar, publitsistlar tomonidan ishlatilayotgan “olimpizm” tushunchasi mohiyatini yangi nuqtai nazardan qarab chiqishni taqozo etadi. Olimpiada harakati va olimpiya sportining taraqqiyoti, bundagi muammolarning ko‘pqirraliligi ilmiy jamoatchilikning bu masalalarga qiziqishini orttirib yubordi⁴.

Olimpiya O‘yinlari va Olimpizmni o‘rganishning pedagogik, ijtimoiy va ilmiy jihatlari mavjud. Bularning barchasini umumlashtirgan xolda Olimpiya bilimlari tushunchasi bilan izohlash va o‘rganish mumkin. Olimpiya bilimlarini egallash natijasida Olimpiya ta’limoti va g’oyalari to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilish mumkin.

Olimpiya bilimlari insonning umumiy madaniyatining bir bo‘lagi bo‘lgan insonparvar dunyoqarash va ta’limning muhim elementidir. Olimpizm va Olimpiya harakatini o‘rganish majburiyat, mas’uliyat, intizom, hurmat, o‘z-o‘zini takomillashtirish, adolatli o‘yin tamoillarini xususiyatlari hamda ahamiyatini tushunish imkonini beradi.

O‘zbekistonda yoshlarni, ayniqsa, qishloq yoshlarini sportga jalb qilishning o‘ziga xos tizimi yaratilgan. Bir so‘z bilan aytganda mustaqillik yillarida Olimpizm g’oyalarini targ’ib qilishning uzluksiz tizimi ishlab chiqildi.

Olimpiya ta’limoti bu o‘ziga xos, takrorlanmas va mukammal tarbiya

⁴ Б.Ғ.Бойбобоев. Олимпия таълими тизимининг ташкил қилиниши. Фан спортга. Илмий-назарий журнал. 2017 й. 4-сон. 76-79 б.

vositasidir. Uning asl mazmuni va mohiyati insonlar, mamlakatlar va davlatlar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Olimpiya O'yinlari haqidagi bilimlar shu darajada keng va ko'p qirraliki, uni o'rganish va targ'ib qilish katta ahamiyat kasb etmoqda. Olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish, Olimpiya bilimlarini egallash nafaqat sport rivoji uchun, balki, jamiyat taraqqiyoti, yoshlar tarbiyasi, insonlar ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda Olimpiya bilimlarini yanada mukammal va to'laqonli egallash, yoshlarni Olimpizm g'oyalari ruhida tarbiyalash zarurati yanada ortadi.

Olimpiya bilimlarini egallash, Olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish zarurati quyidagilarda ko'rinadi:

- yoshlar tarbiyasining ustuvor vazifa ekanligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning e'zozlanishi;
- globallashuv sharoitining xususiyatlari;
- insonlar hayotida, ayniqsa, yoshlar orasida sportning rolini oshirish, sport orqali sog'lom turmush-tarzini targ'ib qilish;
- sportning fan sifatida kelgusi istiqbollarini prognozlash.

Ushbu uslubiy qo'llanmaga Olimpiya o'yinlari haqidagi ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, unda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi faoliyati va tashkil etilishi, uning prezidentlari haqidagi ma'lumotlar o'rin egallagan. Shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilarining Olimpiya O'yinlaridagi ishtiroki xronologik tarzda tahlil etilgan. Bundan tashqari uslubiy qo'llanma talabada Per de Kuberten va uning zamonaviy olimpizm kontseptsiyasi to'g'risida yetarlicha tasavvur shakllanishi uchun imkon beradi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatib kelayoigan sport federatsiyalari to'g'risida ma'lumotlar esa uning qimmatini yanada oshiradi.

Mazkur uslubiy qo'llanma Olimpiya zahiralari kollejlari o'quvchilari, jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari, sport mutaxassisleri uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchi unda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'z xulosalarini shakllantiradi. Ushbu uslubiy qo'llanma bo'limlarida keltirilgan ma'lumotlar bugungacha yaratilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar, tarixiy materiallar va internet manbaalari asosida shakllantirilgan bo'lib, bu talabadan teran fikrlashni talab qiladi. O'zbekistonda sport taraqqiyotining kechasi va buguni hamda uning kelajagi to'g'risida tasavvur qilish mumkin bo'ladi.

Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyalarining rivojlanishi

Yoshlarni jismoniy tarbiyalashning model (namuna) sifatida qadimgi Olimpiya o'yinlaridan foydalanish g'oyalari ommalashib bordi. Bunda qadimgi Olimpiya qishlog'ini arxeologik qazishlar natijasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XVIII asrda arxeolog olimlarning diqqat-e'tiborini qum va loyqalar bosib yotgan qadimgi Olimpiada o'yinlarining o'mi o'ziga jalb etgan edi. Eng avvalo, qadimgi Olimpiya joyini Bernard de Monfakon (Fransiya), keyin nemis olimi Ioaxim Vinkelman, ingliz arxeologi Richard Gandmer va boshqalar aniqladi.

XIX asr boshida birinchi qazish ishlari o'tkazildi. Nemis arxeologi Ernest Kurside (1814—1896) boshchiligida o'tkazilgan qazish ishlari ancha muvaffaqiyatli o'tdi. Olti marotaba tashkil etilgan ekspeditsiya (1875—1881) natijasida Olimpiyada ko'p sonli arxitektura inshootlari va haykallarning qoldiqlari topildi. 1887-yilda arxeologik qazish ishlarining natijalari matbuotda e'lon qilindi. Bu esa qadimgi olimpiya o'yinlariga bo'lgan qiziqish va havasni oshirib yubordi.

Shu asosda jamoatchilik doirasida olimpiya harakatini tiklash g'oyalari tug'ildi.

XIX asrning birinchi va ikkinchi yarmida ayrim mamlakatlarda Olimpiya o'yinlarini amaliy jihatdan tiklashga harakat qilindi. 1834—1836-yillarda Shvetsiyaning Ramiyoz shahrida ikki marotaba Skandinaviya Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Uning dasturidan qisqa va o'rta masofalaiga yugurish, balandlikka va langar cho'p bilan (shest) sakrash, kurash kabi turlar joy olgan.

Bu o'yinning tashabbuskori Lind universitetining professori Gustav Iogann Shartau bo'lgan. Uning taklifi bilan qadimgi olimpiadalar haqida ma'ruzalar o'qilgan.

Yunonlarning olimpiya o'yinlariga qiziqishi, albatta, ma'lumdir. XIX asrda Yunoniston tomonidan qadimgi olimpiya o'yinlarini qayta tiklash haqidagi takliflar ko'p takrorlangan.

Insoniyatning iroda, aql va jismoniy harakatini tarbiyalashga xizmat etuvchi qadimgi Olimpiya bayramlarini qayta tiklash g'oyalari uyg'onish davriga kelib paydo bo'la boshiladi.

Uning ilk tashabbuskorlaridan biri italiyalik davlat arbobi Matteo Polmiyeri (1406—1476) hisoblanadi. U o'zining «Fuqarolik hayoti haqida» nomli kitobida antik Olimpiya o'yinlarining yoshlarni jismoniy tarbiyalashdagi mohiyatini ochib beradi. Shuningdek, «Hayot shahri» (Gorod jizni) kitobida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamiyatga xizmat qilish ehtiyojini singdirish inson hayotining ma'naviy me'yorlarini tarkib toptirishning asosi

ekanligini e'tirof etgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlaridan ibrat olishni Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russo, Fridrix Shiller, Mixail Lomonosov, Iyeronim Merkurialis va boshqa donishmandlar ham tavsiya etishgan.

Ba'zi bir davlatlarda qadimgi Olimpiya o'yinlari o'tkazish amaliy jihatdan kuchga kirgan. Bunday o'yinlar faqat bir davlat miqyosidagina o'tkazilganligi ko'zga tashlanadi. 1604-yilda Robert Dover (Angliya) yoshlar orasida Olimpiya o'yinlariga o'xshash musobaqa o'tkazishga muvaffaq bo'ladi.

Bu voqea «Gotevold o'yinlari» (joyning nomi asosida) nomi bilan tarixda qoldi. Gotevold tepaliklarida o'tkazilgan musobaqalar dasturida rapira, sablya, shpagada qilichbozlik, kurash, futbol (sul) o'yini, bosqon uloqtirish, otda poyga, shaxmat va boshqa o'yinlar bo'lgan. Uilyam Shekspir «Vindgorlik oyimchalar» (Vindgorskiye devushki) asarida «Gotevold tepaliklaridagi Olimpiya o'yinlari» deb uni tilga oladi.

Kapitan Robert Doveming o'yinlari o'ttiz yildan ortiq davr ichida o'tkazib borildi. Uning 1641-yilda vafot etishi bilan uning o'yinlari ham to'xtab qoldi.

Antik Olimpiya o'yinlari timsolidagi musobaqa keyinchalik Germaniya, Shvetsiya, AQSh, Kanada, Gretsiya kabi davlatlarda ham o'tkazilgan. Har bir mamlakatning imkoniyat doirasi va o'zlariga xos xususiyatlari asosida o'yinlar ham turlicha tus olgan. Masalan, 1845-yilda Kanadada bu «Monreal Olimpiya o'yinlari» nomi bilan o'tkazilgan⁵.

Zamonaviy olimpiya o'yinlari g'oyasining keng tarqalishi 1859-1880 yillarga to'g'ri keladi. Gretsiyada olimpiada o'yinlarini tiklash haqidagi fikr shoir Panayotis Sutsosga tegishli bo'lib, uni hayotga jamoat arbobi Yevangelis Sappas tadbiq etgan.

Frantsuz hukumati topshirig'iga binoan 1889 yilda Pier de Kuberten yoshlarni jismoniy tarbiyalash tajribasini o'rganadi, ko'pgina davlatlarga savolnomalar jo'natib, universitetlar, kollej va litseylarda sportni o'qitish uslubiyati bilan qiziqadi. Pier de Kuberten faol, noyob tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lgan inson edi. U yunonlarning 1859-1889 yillardagi musobaqalarini o'tkazish bo'yicha muvaffaqiyatsiz tajribasini xisobga olgan holda birqator davlatlarning yirik sport arboblarni Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishga chorlaydi. Asosiy maqsad olimpiya harakatiga boshidan xalqoro maqom berishdan iborat edi. Pier de Kuberten o'z maqsadi yo'lida Yevropa bo'ylab safarlar uyushtiradi, olimpiya g'oyalari tarafdorlari bilan uchrashadi, aloqalar o'rnatadi, uyga qaytib kelgach, 1892 yil 25 noyabrda Sorbonna universitetida "Olimpizmning uyg'onishi"

⁵ Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T.; "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008; 388 bet.

mavzusida ma'ruza o'qiydi⁶.

Shu tariqa jahonda Olimpiya o'yinlari xalqaro miqyosida o'tkazishiga asta-sekin zamin tayyorlangan. XIX asrning oxirida bu ish to'la amalga oshirildi.

1859 yili grek armiyasi mayori Yevangelis Tappas ikki marotaba o'tkaziladigan, lekin milliy va xalqaro musobaqalarga aylanmagan panellin «Olimpiyada»sini (boshqa davlatlar ishtirokisiz) tashkil etdi. Faqatgina XIX asr oxirida zamonaviy Olimpiya harakatlari yilnomasida ilk satrlar o'z aksini topdi.

Ma'lumki, ko'pgina davlatlarda sport tashkilotlari, klublar yuzaga keldi, xalqaro sport tashkilotlari tashkil etildi, bu yesa o'z navbatida fransuz jamoatchisi Pier de Kubertening zamonaviy Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini hayotga tatbiq etishda asos bo'lib xizmat qildi. Frantsuz huqumati topshirig'iga ko'ra 1889 yili Kuberten yoshlarni jismoniy tarbiyalash borasida tajribalarni o'rgangan, qator davlatlarning ta'lim muasasalarida sportga o'rgatish uslubiyati bilan qiziqqan.

Faol, noodatiy tashkilotchilik qobiliyatlariga ega Pier de Kuberten 1859-1889 yildagi musobaqalarni o'tkazish borasida greklarning omadsiz urinishlarini hisobga olib, Olimpiya harakati xalqaro xarakterga ega bo'lish maqsadida bir qator davlatlarning nufuzli sport jamoatchilarini Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishga jalb yetishga qaror qiladi. U Yevropa bo'ylab sayohat qiladi, Olimpiya g'oyalari tarafdorlari bilan uchrashadi, munosabatlar o'rnatadi. Pier de Kuberten Olimpiya tarafdorlarini to'playdi va 1894 yil 23 iyunda Sorbonna majlislar zalida uchrashuv uyushtirib, 12 davlatdan kelgan 72 vakillar qarshisida Olimpiya o'yinlar va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini tashkil etish taklifini bildirgan.

Zamonaviy Olimpizm g'oyalari frantsuz jamoat arbobi baron Pier de Kuberten tomonidan 1894 yil Parijda o'tkazilgan Xalqaro Atletlar Kongressida ilgari surilgan va 1894 yil 23 iyunda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tashkil etilgan⁷.



1-rasm. Zamonaviy Olimpiada O'yinlari tashkil etilishi.

⁶ Mualliflar jamoasi. "Olimp sari". – Toshkent: "Navro'z", 2017. – 208 bet.

⁷ Olympic Charter (Олимпия Хартияси).

Pier de Kuberten 1863 yil 1 yanvarda Parijda aristokratlar oilasida tavallud topgan (Sharl Lui de Fredi va Agata-Gabriel de Mirvillarning uchinchi farzandi). U Britaniya va AQShning ko'pgina kollej hamda universitetlarida sportning holatini borib ko'rgach, o'z ma'lumotlarini kengaytirishga qaror qiladi. Kuberten katta e'tiborini yoshlar hayotining asosi hisoblangan sportga qaratgan. Jumladan, Kuberten regbi o'yiniga qiziqqan. Regbi bo'yicha birinchi Frantsiya chempionati finalida hakamlilik qilgan.

Kuberten sportni ommalashtirish maqsadida xalqaro sport musobaqalarini tashkil qilish to'g'risida ko'p o'yladi. Arxeologik qazilmalar natijasida qadimgi Olimpiya O'yinlariga doir bo'lgan topilmalar o'sha davrda keng jamoatchilikni qiziqtirar edi. Buni sezgan Kuberten musobaqalarni tiklash loyixasini ishlab chiqdi va taklif qildi.

XOQ tashkil qilingandan so'ng (1894 yil 23 iyun) Kuberten bosh kotib lavozimida ishlagan. Kongressda Kubertenning do'sti Demetrius Vikelasning (Gretsiya) fikri ma'qullangan va birinchi zamonaviy Olimpiya O'yinlari qadimgi o'yinlarning davomi sifatida Gretsiyada o'tkazilishiga kelishilgan.

Birinchi Zamonaviy Olimpiya O'yinlari 1896 yil Afinada (Gretsiya) o'tkazilgan. 1914 yilda XOQning Parij Kongressida Olimpiya bayrog'i Pier de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan. Olimpiya bayrog'i to'rtburchak shaklidagi oq matoga beshta xalqa joylashtirilgan bo'lib, ular bir-biri bilan tutashgan. Matoda chegara chiziqlari yo'q. Xalqalarning ranglari yuqoridan o'ngga qarab ko'k, qora, qizil va pastdan o'ngga sariq, yashil rangda bo'lib ular yer yuzining beshta qit'asini bildiradi. Olimpiya bayrog'ida tushirilgan tasvirning mohiyati butun dunyoda birlik va hamjihatlikni targ'ib qilishdir. Xalqlar va davlatlar orasidagi o'zaro hamjihatlikni targ'ib qilish, mamlakatlar o'rtasida inoqlikni ta'minlashni nazarda tutadi (2-rasm).



2-rasm. Olimpiya bayrog'i va ramzi.

Umuman olganda o'sha davrda Olimpiya Harakati yoki shunga o'xshash qandaydir mukammal tizimni tashkil qilish, bu orqali insonlar, xalqlar ma'naviy va jismoniy kamolotini ta'minlash hamda yer yuzida tinchlikni saqlash zarur edi.

Bunday sharoitda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining tashkil etilishi va Olimpiya Harakatining targ'ib qilinishi o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Olimpiya O'yinlari va u bilan bog'liq tushunchalarning (masalan, Olimpiya Harakati, Olimpiya g'oyalari, Olimpiya ta'limoti kabilar) yuzaga chiqishi butun bir takrorlanmas tizimning amal qilishini ko'rsatdi.

Olimpizm borasidagi fikr va mulohazalar keng qamrovlidir. Uni fan sifatida o'rganish imkoniyati ham mavjud. Bugungacha qator adabiyotlar, maqolalar va boshqa ilmiy-uslubiy nashrlar chop ettirilgan. Dunyo miqyosida Olimpiya Harakatini tadqiq qilishga doir izlanishlar olib borilgan va bu jarayon izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Olimpizmning ijtimoiy-pedagogik jihatlari ham mavjud. Buni biz Olimpiya g'oyalari mazmuni yoki Olimpizm printsiplarida nazarda tutilgan vazifalarda ko'rishimiz mumkin.

Olimpizm bir so'z bilan aytganda Olimpiya O'yinlarini targ'ib qilish to'g'risidagi g'oyalar va qoidalar tizimi. Olimpizmni rivojlantirish, uni xalqlar orasida targ'ib qilish va rivojlantirishning katta ahamiyati bor. Zamonaviy Olimpiya O'yinlari tashkil qilingan davrda aynan shunday tizimni joriy qilish lozim edi. Kubertening uzoq yillar davomidagi kuzatishlari va xulosalari jamiyatda sportni rivojlantirish orqali qandaydir ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Havaskorlik va professional sportni rivojlantirish borasida o'zining aniq takliflarini bildirdi.

Sport faqatgina jismoniy rivojlantirish, inson jismoniy imkoniyatlarini oshirish omili bo'libgina qolmay uning ma'naviy, falsafiy va ilmiy asoslari mavjudligi hamda uni xalqlar orasida rivojlantirish lozimligi to'g'risidagi fikrlar Pier de Kuberten tomonidan ilgari surildi.

Kuberten tomonidan bunday g'oya va takliflarning bildirilishi kutilmaganda katta qiziqish va hayrat bilan qarshi olindi. O'sha davrning ijtimoiy-psixologik holati, millatlar, xalqlar va davlatlar orasidagi o'zaro ziddiyatlar, irqchilik, milatchilik va boshqa shunga o'xshash muammolarning yechimi sifatida Olimpiya O'yinlarining tashkil etilishi o'z samarasini bera boshladi. Keyinchalik Olimpiya O'yinlari takomillashib bordi. Ammo bir narsa muhimki Olimpizm g'olari zamonlar o'tsa ham mohiyatan o'zgarmadi. Unda dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirish, tinchlik va insonparvarlikni ta'minlash doimo birinchi o'rinda turadi.

Olimpizmni targ'ib qilish borasidagi ishlar keyinchalik yanada ommalashib ketdi. Olimpiya O'yinlari tarkibiga yangi sport turlarining kiritilishi, sportchilar tarkibining kengayishi va boshqa sabablar evaziga Olimpizm g'oyalari tobora kengayib bordi.

P.Kubertenning zamonaviy olimpiya kontsepsiyasida shaxs rivojlanishi

Kubertenning hayoti davomidagi asosiy faoliyati Olimpiya o'yinlarini qayta tiklashga qaratilganligi haqida ko'plab dalillar mavjud. Misol uchun, Olimpiya ta'limi bo'yicha darsliklarda: "Kuberten Olimpiya o'yinlarini tiklashni taklif qilgan o'sha yoshlik paytdan boshlab, butun hayotini ushbu buyuk g'oyani amalga oshirilishiga bag'ishladi" deb qayd etilgan.

Kuberten hayoti va ijodini tahlil qilish natijasida u o'z faoliyatining ma'lum bir bosqichida, Olimpiya o'yinlarini jonlantirish va bu fikrni amalga oshirish uchun juda ko'p mehnat qilgan deb xulosaga kelish mumkin. Uning bu g'oyasining asosiy maqsadi – olimpiya ta'limini o'sha paytda mavjud bo'lgan ta'lim va tarbiya tizimiga isloh qilish edi.

Kuberten merosining eng yaxshi tadqiqotchilaridan biri P. Bulon bu haqda quyidagicha izoh beradi: "Kuberten butun hayoti davomida ta'lim tizimining islohotchisi bo'lgan. Buni ushbu mavzuga bag'ishlagan axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha ko'plab asarlari tasdiqlaydi masalan, "Utilitarnaya gimnastika" (1905), "Axloqiy tarbiya muammosi" (1907) va "O'zaro hurmat" (1915)".

J.Dyure bu haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Kubertening ko'z o'ngida Olimpiya o'yinlari - maqsad emas, balki faqat sportni ommolashtirish vositasidir, bu o'z navbatida ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismidir".

Shu sababli, Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy olimpiya kontsepsiyasini va ushbu kontsepsiyaga yo'naltirilgan qiymatlarni to'g'ri tushunish uchun, birinchi navbatda, Kubertenning o'sha paytda mavjud bo'lgan ta'lim tizimini isloh qilish haqidagi umumiy pedagogik rejasi bilan yaqin munosabatlarni hisobga olish kerak.

Har qanday ta'lim faoliyati shaxsning muayyan idealiga asoslangan, ya'ni insonning qanday fazilatlarini bo'lishi kerakligi haqidagi g'oya "eng yaxshi", "mukammal", "namunali" hisoblanadi. Shu sababli, Kuberten, ta'limning yangi tizimini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, bu tizimni yo'naltirish kerak bo'lgan shaxsning idealini o'rganishga katta e'tibor qaratdi.

Qadimiy Gretsiyaning tarixi va falsafasi bilan bog'liq bir qator omillar insonparvarlik g'oyalariga qaratilgan muammolarni hal etishda uning yo'nalishini belgilab berdi.

Insonning jismoniy va ma'naviy jihatdan uyg'unligini ta'minlash g'oyasi nafaqat qadimgi faylasuflarning, balki keyingi davr falsafachilarining asarlarida ham keltiriladi.

I.Kant "Pedagogika to'g'risida" risolasida, ma'naviyati va tashqi ko'rinishi muvozanatlashgan, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. U tana madaniyatini qalb madaniyatiga bog'laydi va u ham ma'lum

darajada jismoniy kamolotga chorlaydi.

XX asrning 20 yillarida "holizm" - yaxlitlik falsafasi deb nomlangan yangi falsafiy tendentsiya paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalish doirasida inson ichki va tashqi tamoyillarning bir-biriga uyg'unligi bilan ajralib turadigan shaxs sifatida qaraladi. O'tmishda va hozirgi vaqtda insonning jismoniy va ma'naviy jihatdan uyg'un bo'lishi zarurligi haqidagi qarashlar insonparvarlik yo'nalishidagi deyarli barcha pedagogik tushunchalarda yotadi.

Kuberten «barkamol inson g'oyasini» qayta tikladi. U qadimgi yunon falsafasida ruh va tana, mushaklar va ong, go'zallik va fazilat o'rtasidagi uyg'un munosabatni o'z ichiga olgan yangi pedagogika tipining asosini ko'rgan. Kuberten o'z shaxsiy g'oyalariga asoslanib tana va ruhni bir butunlikda tasavvur qilgan va ular ayro rivojlanishi mumkin emas deb hisoblagan. Shuning uchun, deb yozgan edi u, "bu ikki omil "evritmiya"ga erishish uchun bir butun uyg'unlikda bo'lishi kerak".

«Evritmiya» so'zini Kuberten ko'pincha insonning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini uyg'unlashtiruvchi fikrni ifodalash uchun ishlatgan.

Ushbu so'z XX asrning boshida E. Xyun tomonidan "muntazamlik, muvofiqlik va mutanosiblik" deb ta'riflangan. Ba'zi bir izohli lug'atda "go'zallik, hayot shakllarining mukammalligi va o'zini ifoda etish"ni bildiradigan "evritmiya" Kuberten uchun yuqori madaniyatli va mukammal turmush tarzining mazmuni va namoyon bo'lishini anglatadigan atama bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda Kuberten ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida shaxsning uyg'un rivojlanish g'oyasini amalga oshirishning muhim vositasini topish uchun butun hayotini sarf etgan.

O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasi faoliyati

Milliy Olimpiya Qo‘mitasi (MOQ) — mamlakat nomidan olimpiada harakatida vakil bo‘lib qatnashuvchi tashkilot. MOQni Xalqaro olimpiada qo‘mitasi (XOQ) tan olmasa, milliy jamoalar Olimpiada o‘yinlariga qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi 1992-yil 21-yanvarda Toshkent shahrida chaqirilgan konferensiya qarori bilan tashkil topgan. 1993-yil sentabr oyida Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi ning 101-sessiyasida tasdiqlangan.^[1]

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi (MOQ) nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, u o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (XOQ), Olimpiya Xartiyasi va O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Ustavi asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi (MOQ) sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, Olimpiyadaga oid ta‘lim, Olimpiya qadriyatlari ommalashtirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash ishlarida ishtrok etadi, sport murabbiylari va sport tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

MOQ bilan Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, Milliy Olimpiya qo‘mitalari jamiyati va boshqa qator xalqaro sport federatsiyalari hamda tashkilotlari o‘rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.^[2]

MOQning maqsadlari:

- olimpiada harakati va havaskorlar sportini rivojlantirishga yordam berish;
- mamlakat sportchilarining Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etishini ta‘minlash;
- O‘zbekiston va butun dunyo sportchilari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini rivojlantirish.

MOQning oliy organi Bosh assambleya, u odatda, bir yilda kamida bir marta chaqiriladi. Assambleyalar orasidagi davr ichida MOQ ijroiya qo‘mitasi olimpiada harakatiga rahbarlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi MOQ rahbarligida ish olib boruvchi O‘zR Olimpiya akademiyasi tashkil qilingan (1993). U ko‘ngilli jamoat tashkiloti hisoblanib, olimpiada harakati va olimpiada o‘yinlarining qadriyat va tamoyillarini o‘rganadi va ommalashtiradi. Olimpiada g‘oyalarini targ‘ib qilish maqsadida Toshkentda O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi tashkil etilgan(1996). Muzeyda O‘zbekiston va xalqaro olimpiya harakati, milliy sport turlari tarixi, mashhur sportchilar erishgan muvaffaqiyatlardan hikoya qiluvchi eksponatlar to‘plangan.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. MOQning asosiy funksiyalarini *ichki* va *tashqi funksiyalarga* bo‘lish mumkin.

Ichki funksiyalarga quyidagilar tegishli:

1. O'zbekistonda Olimpiya Xartiyasida mustahkamlangan tamoyillar asosida Olimpiya Harakatini rivojlantirish;
2. respublika aholisini jismonan va ma'naviy-ruhiy tarbiyalashga ko'maklashish;
3. jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy bandlikni rivojlantirishda ishtirok etish;
4. milliy sport turlari, nogironlar o'rtasidagi sport turlarini rivojlantirishni targ'ib qilish, davlat va jamoaviy jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga mamlakat terma jamoalari va sport zahiralarini tayyorlashga ko'maklashish;
5. yoshlarni halol kurashish, raqibga o'zaro hurmat munosabatida va xalqlar o'rtasidagi do'stlik ruhi tamoyillari asosida tarbiyalash;
6. O'zbekistonda Olimpizm g'oyalarini targ'ib qilish, insonlarni O'zbekiston Respublikasi sportchilarining muvaffaqiyatlari bilan tanishtirib borish, Olimpiya ta'limini rivojlantirish;
7. sport kadrlarining malakasini oshirish va tajriba almashish bo'yicha konferensiyalar, seminarlar, kurslar tashkil etish;
8. sportni qo'llab-quvvatlovchi fondlar va xayriya tashkilotlari tuzishda qatnashish; sportchilar, murabbiylar, sport hakamlari, sport faxriylarining manfaatlarini himoya qilish.

Tashqi funksiyalar ham bulardan unchalik farq qilmaydi:

- xalqaro arenalarda O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rnini mustahkamlash va nufuzini oshirish;
- Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, Butunjahon yoshlar va Markaziy Osiyo o'yinlarida mamlakat delegatsiyalariga boshchilik qilish;
- XOQ, OOK, boshqa davlatlarning Milliy Olimpiya qo'mitalari, xalqaro sport birlashmalari bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- XOQning „Olimpiya birdamligi“ dasturlarida ishtirok etish;
- Respublika sport federatsiyalari va tashkilotlariga ularning xalqaro sport uyushmalari ishlarida faol ishtirok etishlariga ko'maklashish;
- xorijiy muassasalar, tashkilotlar va firmalar bilan O'zbekiston MOQ vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha xizmat shartnomalarini tuzish va amalga oshirish;
- xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Olimpiya Harakati va sport tashkilotlari manfaatlarini taqdim etish;
- xalqaro (nohukumat) birlashmalarga milliy davlat qonunchiligi asosida a'zo bo'lish;

• to'g'ridan-to'g'ri xalqaro aloqa va munosabatlar o'rnatish, mamlakatlar va hududlar sport uyushmalari bilan bitimlar imzolash.

Ichki funksiyalarni bajarish 1992-yil 21-yanvardan, O'zbekiston MOQ tuzilganidan boshlab amalga oshirila boshlandi. Xalqaro faoliyatni to'la amalga oshirish Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi o'zining 1993-yil sentabr oyidagi 101-sessiyasida O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasini tan olgan paytdan boshlagan.^[5]

O'zbekistoning Olimpiada o'yinlaridagi medallari

O'zbekiston Olimpiyachilarining Yozgi Olimpiada o'yinlarida erishgan medallari ^[6]

O'zbekistonning jami medallari								
Yil	Ishtrokchi	Mezbon malakat	Bayroqdor	Oltin	Kumush	Bronza	Jami	O'rni
1996	71	 Atlanta	Temur Ibragimov	0	1	1	2	58
2000	70	 Sidney	Muhammadqodir Abdullaev	1	1	2	4	41
2004	69	 Afina	Abdulla Tangriev	2	1	2	5	34
2008	56	 Pekin	Dilshod Mahmudov	1	2	3	6	40
2012	53	 London	Elshod Rasulov	1	0	2*	3	47
2016	70	 Rio-de-Janeyro	Bahodir Jalolov	4	2	7	13	21

• London-2012 Olimpidasida bronza medalini qo'lga kiritgan Soslan Tigiev organizmida taqiqlangan metilgeksaneamin moddasi topilgani sabab, bronza medalidan mahrum qilingan.

Olimpiada o'yinlari tarixidagi sovrindorlar

Medal	Sportchi	O'yinlar	Sport turi	Sport bahsi
 Oltin	Lina Cheryazova	Lillehammer 1994  Norvegiya	 Fristayl	Ayollar fristayl
 Bronza	Karim To'laganov	Atlanta 1996  AQSH	 Boks	Erkalar yengil vazn
 Kumush	Armen Bagdasarov	Atlanta 1996  AQSH	 Dzyudo	Erkaklar o'rta vazn
 Oltin	Muhammadqodir Abdullaev	Sidney 2000  Avstraliya	 Boks	Erkaklar o'rta vazn 63.5 kg
 Kumush	Artur Taymazov	Sidney 2000  Avstraliya	 Erkin kurash	Erkaklar og'ir vazn
 Bronza	Rustam Saidov	Sidney 2000  Avstraliya	 Boks	Erkaklar og'ir vazn +91 kg

Medal	Sportchi	O'yinlar	Sport turi	Sport bahsi
3 Bronza	Sergey Mixaylov	Sidney 2000  Avstraliya	 Boks	Erkalar o'rta vazn 81 kg
1 Oltin	Artur Taymazov	Afina 2004  Yunoniston	 Erkin kurash	Erkaklar og'ir vazn 120 kg
1 Oltin	Alexandr Doktorishvili	Afina 2004  Yunoniston	 Erkin kurash	Erkaklar Yunon rum kurashi 74 kg
2 Kumush	Magomed Ibragimov	Afina 2004  Yunoniston	 Erkin kurash	Erkaklar erkin kurashi 96 kg
3 Bronza	Bahodirjon Sultonov	Afina 2004  Yunoniston	 Boks	Erkaklar O'rta vazn
3 Bronza	O'tkirbek Haydarov	Afina 2004  Yunoniston	 Boks	Erkalar og'ir vazn
1 Oltin	Artur Taymazov	Pekin 2008  Xitoy	 Erkin kurash	Erkaklar og'ir vazn 120 kg
2 Kumush	Soslan Tigiev	Pekin 2008  Xitoy	 Erkin kurash	Erkaklar Erkin kurash 74 kg
3 Bronza	Abdulla Tangriev	Pekin-2008  Xitoy	 Dzyudo	Erkaklar Og'ir vazn +100 kg
3 Bronza	Rishod Sobirov	Pekin 2008  Xitoy	 Dzyudo	Erkaklar Yengil vazn 60 kg
3 Bronza	Anton Fokin ^[9]	Pekin 2008  Xitoy	 Gimnastika	Erkaklar brusda bajarilgan mashqlar
3 Bronza	Ekaterina Xilko	Pekin 2008  Xitoy	 Gimnastika	Ayollar trampolini
3 Bronza	Rishod Sobirov	London 2012  Birlashgan Qirollik	 Dzyudo	Erkaklar Yengil vazn 60 kg
3 Bronza	Abbos Atoev	London 2012  Birlashgan Qirollik	 Boks	Erkaklar o'rta vazn
1 Oltin	Artur Taymazov	London 2012  Birlashgan Qirollik	 Erkin kurash	Erkaklar og'ir vazn 120 kg

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi quyidagilardan tashkil topgan:

- O'zbekiston MOQ **Prezidenti, Bosh Kotib va Vitse-Prezidentlar;**
- Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi a'zolari;

- Olimpiya o'yinlari dasturiga kirgan sport turlari xalqaro federatsiyalari a'zolari hisoblanuvchi Milliy sport federatsiyalari yoki MOQ va uning Ijroqo'mining ko'pchilik ovozini tashkil etuvchi vakillari. MOQ har bir sport turlari bo'yicha bunday Xalqaro sport federatsiyalari boshchilik qiluvchi birdan ortiq Milliy sport federatsiyalarini tan olmaydi;

- Olimpiya va milliy sport turi hisoblanmaydigan federatsiyalar vakillari;

- Sport tashkilotlarining umumiy yig'ilishlarida demokratik yo'l bilan rivojlantiriluvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri sport tashkilotlari vakillari;

- Davlat jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi organlari, ko'ngilli sport jamiyatlari va muassasalari vakillari;

- Oldingi va kelgusi Olimpiya o'yinlari atlet-ishtirokchi vakillari;

- O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Akademiyasi Prezidenti;

- Sport jurnalistlari federatsiyasi vakillari;

- Alohida shaxslar — Olimpiya harakati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (ko'zga ko'ringan jamoat, fan va san'at arboblari);

- O'zbekiston MOQning faxriy a'zolari;

- MOQ faoliyatiga moddiy va moliyaviy ko'maklashuvchi tashkilotlar vakillari.



Xuan Antonio Samaranch Olimpiya Oltin ordenini Islom Karimovga topshirmoqda

Sport federatsiyalari

O'zbekiston regbi federatsiyasi Prezident: Safoev Sodiq Solixovich Bosh kotib: Artikov Jasur Nigmatullaevich Vitse-prezident: Ibragimov Dilmurod Ne'matovich	O'zbekiston basketbol federatsiyasi Bosh kotib: Mirodilov Botir Mahkamovich Vitse-prezident: Iskov R.I, Jo'raev I.T, Yurkevskiy K.E, Qodirov R.G'. Tashkil topgan yili: 1992 yil	O'zbekiston sport kurashlari assotsiatsiyasi Prezident: Abduvaliev Salim Kirgizbaevich Bosh kotib: Mamadaliev Shuxrat Farxadovich Vitse-prezident: SHofayziev SHomurod Muhsinovich, Ro'ziev Ahrol Ahmedovich, Rahimov Muxtar Nigmatovich Tashkil topgan yili: 1998 yil
O'zbekiston velosport federatsiyasi	O'zbekiston chim ustida xokkey federatsiyasi	O'zbekiston futbol Assotsiatsiyasi

Prezident: Norbaeva Tanzila Kamalovna Vitse-prezident: O‘rinboyxo‘jaev Kozim Baxtiyorovich Tashkil topgan yili: 1991 yil	Prezident: Ahmedov Bahodir Majidovich Bosh kotib: Raxmatxo‘jaev Muzaffarxo‘ja Yunusxonovich	Prezident: Ramatov Achilbay Jumaniyozovich Bosh kotib: Sardor Hamidullaevich Birinchi vitse-prezident: Ahmadjonov Umid Mahamadjonovich Tashkil topgan yili: 1992 yil
O‘zbekiston qilichbozlik federatsiyasi Prezident: SHoabdurahmanov Rustam Mavzurovich Bosh kotib: Ibragimov Muhammad Xumoyun Dilmurod o‘g‘li Vitse-prezident: Mirjalilov Mirafzal Amanovich Tashkil topgan yili: 1992 yil	O‘zbekiston og‘ir atletika federatsiyasi Prezident: Zokirov Botir Erkinovich Bosh kotib: Abdukarimov Baxtiyor Abdurahimovich Vitse-prezident: Mahmudov SHahrullo SHaripovich Tashkil topgan yili: 2001 yil	O‘zbekiston tennis federatsiyasi Prezident: Inoyatov Rustam Rasulevich Bosh kotib: SHEpelev Igor Nikolaevich Vitse-prezident: Xaydarov Zelimxon Xaydarovich Tashkil topgan yili: 1999 yil E-mail: utf@tennis.uz
O‘zbekiston taekvondo federatsiyasi Prezident: Parpiev Botir Raxmatovich Bosh kotib: Latipov Abbas Hamidovich Tashkil topgan yili: 1992 yil	O‘zbekiston o‘q otish sporti federatsiyasi Prezident: Eminjanov Rustam Olimovich Bosh kotib: Atabullaev Jaloliddin Jaynakovich Tashkil topgan yili: 1998 yil	O‘zbekiston kamondan otish federatsiyasi Prezident: Boboxonov Jamoliddin SHamsiddinovich Bosh kotib: Xasanbaev Otabek Kamilovich Vitse-prezident: To‘laganov SHavkat To‘raevich Tashkil topgan yili: 2005 yil
O‘zbekiston suv sport turlari federatsiyasi Prezident: Sanakulov Kuvondiq Sanakulovich Bosh kotib: G‘aniev Alisher Abdumajitovich Vitse-prezident: G‘ulomov Saidaxrol G‘anievich Tashkil topgan yili: 1992 yil	O‘zbekiston stol tennisi federatsiyasi Prezident: Xurshid Mirzohidov Vitse-prezident: Tursunov F.X., Balashov A., Xudoyqulov N.M. Tashkil topgan yili: 1993 yil	O‘zbekiston engil atletika federatsiyasi Prezident: G‘ulomjon Ibragimov Bosh kotib: Rozimuxamedov Kamoliddin Vitse-prezident: Ikramdjanov B.I., Mirtemirov B.R., Sagdiev A. Tashkil topgan yili: 1992 yil
O‘zbekiston ot sporti federatsiyasi Prezident: Rafikov Qudratilla Mirsagatovich Bosh kotib: Anarbaev Eldor Vitse-prezident: Karimov Avaz Qudratullaevich Tashkil topgan yili: 1997 yil	O‘zbekiston dzyudo federatsiyasi Prezident: Akmalov Alisher Valievich Bosh kotib: Muradov Abdulla Nazarovich Vitse-prezident: Bagdasarov Armen Yurevich, Muminov SHavkat Turumovich Tashkil topgan yili: 1991 yil	O‘zbekiston gimnastika federatsiyasi Prezident: Tillaeva (Karimova) Lola Islamovna Bosh kotib: Filippova Guzel Boxodirovna Vitse-prezident: Mustaev Ruslan Bulatovich Tashkil topgan yili: 2007 yil
O‘zbekiston gandbol federatsiyasi Prezident: Musaev Omonjon Muhammadaminovich Bosh kotib: Matxalikov	O‘zbekiston Voleybol federatsiyasi Prezident: SHoismatov Ergash Rahmatullaevich Bosh kotib: Abdullaev Sanjar	O‘zbekiston „rowing & canoe“ federatsiyasi Prezident: Mirzaev Zoir Toirovich Bosh kotib: Mamatkulova

Ismoiljon Ikramovich Tashkil topgan yili: 1992 yil	Tashkil topgan yili: 1991 yil	Tatyana Tashkil topgan yili: 1992 yil
O'zbekiston boks federatsiyasi Prezident: Ramatov Ochilboy Jumaniyozovich Bosh kotib: Boltaboev Jahongir Baxtiyorovich Vitse-prezident: Toshmatov SHerzod Rixsiboevich Tashkil topgan yili: 1992 yil [10]		

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi Rahbariy organlari quyidagilar hisoblanadi:

- Bosh Assambleya;
- Ijro etuvchi qo'mita (Ijroqo'm)
- Ijroqo'm burosi.

Bosh Assambleya

Bosh Assambleya vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasida Olimpiya Harakatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;
- XOQ yoki OOK vasiyligida o'tkaziluvchi Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari yoki boshqa sport musobaqalarini o'tkazishda respublika shaharlari nomzodlarini taqdim etish to'g'risida qaror qabul qilish;
- O'zbekiston MOQning kelgusi davr uchun faoliyat dasturlarini tasdiqlash;
- Ijroqo'm va MOQ Taftish komissiyasining hisobot yili va to'rt yillik davr uchun faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqish va baholash;
- O'zbekiston MOQga a'zolik to'g'risida qaror qabul qilish;
- Prezident, Vitse-prezidentlar, Bosh kotib, Ijro etuvchi qo'mita a'zolari va Taftish komissiyasi a'zolarini saylash;
- Respublika sport federatsiyalari va ularga tenglashtirilgan birlashmalar (assotsiatsiyalar) ni tan olish;
- Bosh Assambleya yiliga kamida bir marotaba o'tkaziladi;
- To'rt yilda bir marotaba, navbatdagi yozgi Olimpiya o'yinlari o'tgan yildan keying yil O'zbekiston Bosh Assambleyasining hisobot-saylovi o'tkaziladi, unda Ijroqo'mning hisoboti tinglanadi, rahbariy organlar saylovi o'tkaziladi;
- Bosh Assambleya faqatgina a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etganda va faqatgina kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega;
- Qarorlar MOQ ishtirokchi a'zolarining ochiq yoki yopiq ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Olimpiya o'yinlariga tegishli masalalar hal qilinganda faqatgina MOQ Ijroqo'mi a'zolari va Olimpiya o'yinlari

dasturlariga kiritilgan sport turlari bo'yicha xalqaro federatsiyalar vakillari ovozi qabul qilinadi.

Ijro etuvchi qo'mita



Osiyo Olimpiya Kengashi Prezidenti Al-Ahmad Al-Saboh Islom Karimovga OOK Oltin Ordenini topshirmoqda

Bosh Assambleyalar davrida O'zbekiston MOQ faoliyatiga tarkibi Bosh Assambleya tomonida belgilanadigan Ijro etuvchi qo'mita boshchilik qiladi. O'zbekiston MOQ tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Prezident
- Vitse-prezidentlar
- Bosh kotib
- Ijroqo'm a'zolari

Ijroqo'm majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Ustavga amal qilinishini ta'minlash;
- Bosh Assambleya kun tartibini, uni o'tkazish vaqti va joyini aniqlash;
- O'zbekiston MOQ budjetini, faoliyatining moliyaviy va ma'muriy qoidalarini tasdiqlash, shuningdek, ularni amalga oshirishni nazorat qilish;
- Doimiy komissiya ro'yxatini tasdiqlash, ularning faoliyati va vakolatlari doirasini aniqlash;
- Bosh Assambleya topshiriqlarini bajarish;
- O'zbekiston MOQning yangi a'zolarini tan olish bo'yicha, MOQ a'zolarini mukofotlash bo'yicha va Ustav qoidalari buzilgan hollarda MOQ a'zolariga nisbatan jazo choralari ko'rish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- O'zbekiston MOQ imzolagan shartnomalar, kelishuvlar va boshqa bitimlarning shartlarini ko'rib chiqish;
- O'zbekiston terma jamoalarining Olimpiya, Osiyo o'yinlari va XOQ va OOK shafeligida o'tkaziluvchi boshqa kompleks xalqaro musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish va qatnashishi masalalarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
- Tegishli respublika sport federatsiyalari tomonidan taqdim etilgan sportchilarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish. Sport

federatsiyalari tomonidan taqdim etilgan ro'yxatlarning Olimpiya Xartiyasiga mos tushishini (har tomonlama) ta'minlash;

- Sport federatsiyalari a'zolarining ekipirovkasi, transportirovkasi va joylashishini tashkil etish;

- Delegatsiya a'zolari foydasiga baxtsiz hodisalar (nogironlik, o'lim, kasallik, tibbiy va dori-darmon harajatlari) va uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarlikdan sug'urtalash to'g'risidagi shartnomalar tuzish. Sport delegatsiyasi a'zolarining yurish-turishiga ma'suliyatni o'z bo'yniga olish;

- Ijroqo'm o'z majlislarini zarur hollarda, lekin bir yilda kamida uch marta o'tkazadi, shuningdek, majlis MOQ Prezidenti qarori bilan yoki Ijroqo'm a'zolarining 1/3 qismi talabi bilan ham o'tkazilishi mumkin;

- Ijroqo'm majlisda o'z a'zolarining kamida yarmi ishtirok etgan taqdirda qaror qabul qilishi mumkin;

- Qarorlar mavjud Ijroqo'm a'zolarining ochiq ovoz berishi orqali oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Prezident ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

O'zbekiston milliy olimpiya qo'mitasi prezidentlari

O.Nazirov O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi bilan ijtimoiy sohada boshqarish tuzilmasini dinamik o'zgartirish imkoniyati tug'ildi. Bu mamlakatimizdagi tubdan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar hamda uning jahon hamjamiyatiga, jumladan, sport hamjamiyatiga integratsiyasi sababli yuzaga keldi.

Jismoniy tarbiya va sport oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun O'zbekistonda olimpiya harakatini boshqarish bo'yicha tashkilot tuzish zarur bo'lib qoldi. Shuningdek, bu tashkilot Xalqaro olimpiya qumitasi tomonidan tan olinishi lozim edi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) aynan Shunday tashkilot bo'ldi.

MOQni tuzish va tasdikdash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisi hamda O'zbekiston MOQ birinchi prezidenti Obid Nazirovich Nazirov katta hissa qo'shdi.

U 24 yoshida, yirik musobaqada ishtirok eta turib, sobiq Ittifoq sport ustasi me'yorini bajaradi, keyinchalik «Mehnat rezervlari» MSK birinchiligi, kasaba uyushmalari spartakiadalarida qatnashadi va bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritadi.

Sportga bo'lgan muhabbat uning kelajagini, kasbini aniqlab berdi: u O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutiga o'qishga kirdi. Oliy o'quv yurtini tugatgach, O.Nazirov pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi va katta natijalarga erishdi — u 60 dan ortiq sport ustalari hamda xalqaro toifadagi

sport ustalarini tarbiyalab voyaga yetkazdi.

Uning o'quvchilari orasida taniqli sportchilar, O'zbekiston, sobiq Ittifoq, terma jamoalari a'zolari, sobiq Ittifoq tashqarisida ham mashxur bo'lgan sportchilar: Qo'ldosh Asraqulov — sobiq Ittifoq sovrindori; Salim Abduvalaev — «Mehnat rezervlari» MSK chempioni, xalqaro musobaqalar sovrindori, hozirda esa O'zbekiston erkin, yunon-rum kurashi assotsiatsiyasi prezidenti Mahamat Mahbubov — sobiq Ittifoq «Mehnat rezervlari» MSKning ko'p karra sovrindori, O'zbekiston chempioni, hozirda ichki ishlar organlari boshqarmasi boshlig'i, Vladimir Kim, Xabibulla Mirzarahimov, Sa'dulla Mamajonov, Shuxrat Usmonov, Samandar Nasimov, Respublika erkin kurash federatsiyasi prezidenti Xusnitdin Nazirov va boshqalar bor. Hozirgi paytda ular respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishda faol ishtirok etmokdalar.

O. Nazirovning sermahsul mehnati rahbariyat tomonidan munosib taqdirlanib, 1983 yil iyunda u O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener unvoniga sazovor bo'ldi.

O. Nazirov O'zbekiston «Mehnat rezervlari» KSJ raisi (1974—1984 yy., 1986—1990 yy.); O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisi o'rinbosari (1984—1985 yy.), so'ngra raisi (1990—1992 yy.), 1992 yil oktyabr oyidan 1994 yil aprel oyigacha — O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi prezidenti etib tayinlangan. Bu yillarda uning bevosita rahbarligi ostida O'zbekiston sportchilarini xalqaro musobaqalarga hamda Barselonadagi Olimpiya o'yinlariga tayyorlash va unda ishtirok etish amalga oshirildi.

SSSR parchalangandan so'ng, sobiq Ittifoq respublikalarida MOQni tashkil etish hamda xalqaro sport harakatida va Barselonadagi (1992 y.) Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun uning XOQga qabul qilinishi zarur bo'lib qoldi. Shu sababli Moskvada XOQ prezidenti X.A.Samaranch hamda sobiq Ittifoq respublikalarining jismoniy tarbiya xarakati rahbarlari ishtirokida kengash o'tkazildi. Bu yerda Barselona o'yinlarida MDX Birlashgan jamoa tarkibida qatnashishi, taqdirlash marosimida esa tegishli mustaqil davlat madhiyasini ijro etish hamda bayrog'ini ko'tarish to'g'risida qaror chiqarildi. Bir vaqtning o'zida Olimpiya xartiyasiga binoan ularni XOQda tan olish bilan Milliy olimpiya qo'mitalarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdagi ulkan hissasi uchun O.Nazirov 1983 yil iyunda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jismoniy tarbiya va sport xodimi», 1992 yil avgustda esa «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» unvonlariga sazovor bo'ldi.

S.Ro'ziev. O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasining

ikkinchi prezidenti - O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport harakatining yirik namoyandasi Sobirjon Sobitovich Ro'zievdir. (1953 yilda tug'ilgan).

S.Ro'ziev yoshlik yillaridanoq olimpiya sport tug'ri - qilichbozlik bilan shug'ullangan. Musobaqalarda muvaffaqiyat bilan qatnashish, ushbu sport turining o'ziga xos xususiyatlari: tafakkurga ega bo'lish, uning nazariyasi hamda amaliyotini chuqur bilish — Sobirjonni O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutiga yetakladi. Ushbu oliy o'quv yurtini tugatgach, u qilichbozlik buyicha mahoratli trenerga aylandi. Keyinchalik, MOQ prezidenti bo'la turib, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish sohasida o'ta bandligiga qaramay, u trenerlik ishidan voz kechmadi. Chunki bu uning uchun hayotining ajralmas qismi, ma'muriy ishdan amaliy, sevimli ishiga o'tish vositasi edi. Aynan shu narsa unga sport formasini saqlab turishga, qilichbozlik sirlari va san'atini yosh avlodga berishga imkon yaratdi.

S.S.Ruziev O'zbekiston va sobiq Ittifoq terma jamoasi a'zosi sifatida sharaflı sport yo'lini bosib o'tgan. Uni olimpiya dunyosi yaxshi taniydi, u ikki marta Monreal va Moskvadagi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan. Moskvadagi Olimpiadada rapira musobaqalarida jamoa hisobida kumush medal sovrindori bo'lgan. U uch karra jahon chempioni (1972, 1974, 1976 yy.), ikki marta Butunjahon talabalar universiadasi chempioni (1974, 1977 yy.), ikki marta Djovannini va Martini Kubogi sohibi bo'lgan. Shu yillarda u bir necha bor O'zbekiston hamda sobiq Ittifoq spartakiadalari, chempionatlari va Kuboklari chempioni bo'lgan. 1980 yilda sportdagi yutuklari uchun u «SSSRda xizmat ko'rsatgan trener» unvoniga sazovor bulgan.

Sobirjon Ro'zievning sportdagi ulkan yutuqlari, uning yuksak ma'naviyati, ziyoliligi va sportga sadoqati har doim davlat rahbarlari diqqatani jalb qilib kelar edi. Sport faoliyati yakunida u jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha davlat hamda jamoat ishlariga tez-tez jalb qilina boshladi: 1992 yil avgustda O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisi, 1994 yil 8 apreldan Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidenti bo'ldi.

U MOQda rahbarlik qilgan yillarda mamlakatimiz olimpiya harakati katta muvaffaqiyatlarga erishdi, Sobirjon Sobitovich esa Xalqaro Olimpiya qo'mitasi e'tiboriga tushib, 1998 yilda XOQning kumush ordeni bilan taqdirlandi. S.S.Ro'ziev rahbarligi ostida O'zbekiston MOQ olimpiya sport turlarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmadi. S.S.Ruziev o'zining tashkilotchilik qobiliyati va olimpiya harakati bo'yicha bilimlarini O'zbekistonda olimpiya g'oyalarini keng tarqatish, o'quvchilar o'rtasida olimpiya ta'limotini joriy etishga yo'naltirdi. 1994 yildan buyon O'zbekistonda olimpiya harakati muammolariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferentsiya muntazam o'tkazib

kelinadi. 1996 yilda uning rahbarligi ostida olimpiya harakatini o'rganuvchilar uchun birinchi o'quv qo'llanma nashr qilindi. 1998 yilda uning ma'ruzasi «Yoshlar — fan — olimpizm» xalqaro forumida jahonning yirik olimlari diqqatiga havola etildi va u olimpizm muammolarini o'rganuvchi olimlarning yuqori bahosiga sazovor bo'ldi. S.S.Ruziev O'zbekiston Olimpiya shon-shuxrati muzeyi va Markaziy Osiyo o'yinlarini tashkil etishda, O'zbekiston MOQ rahbarligi ostida Toshkentda olimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislar uchun xalqaro seminarlarni o'tkazishda, sportchilarni yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari hamda Osiyo o'yinlariga tayyorlashda, Toshkentda birinchi yirik xalqaro forum — Osiyo davlatlari MOQLari bosh kotiblarining kengashini (aprel, 1999 y.) o'tkazishda katta xizmatlar qildi.

Xozirgi kunda Sobirjon Sobitovich Ro'ziev turli xalqaro sport tashkilotlarida muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda. U xalqaro kino va televidenie federatsiyalari a'zosi hamda Osiyo Olimpiya kengashi qo'mitasining moliyaviy masalalar bo'yicha a'zosi sifatida olimpizm g'oyalarini rivojlantirishga yordam bermoqda. Ushbu tashkilotlar va jahonning olimpiya tashkilotlari forumlari ishidagi o'zining ishtirokini u o'z faoliyatining asosiy maqsadi — O'zbekistonda jismoniy tarbiyani rivojlantirish hamda mamlakatimizni xalqaro sport maydonlarida muvaffaqiyat bilan namoyon kilishga bag'ishlayli.

Prezidentlar	Boshqaruv yillari	Bosh kotib
Obid Nazirov	1992-1994	prof. Xamrakulov Abduxamid Kadirxanovich
Sobirjon Ro'ziev	1994-2003	2001 -yildan Malik Babaev
Aziz Nosirov ^[11]	2003-2005	Malik Babaev
Rustam Qurbonov	2005-2009	Malik Babaev
Malik Babaev ^[12]	2009-2013	Muhammadali Karimov
Mirabror Usmonov ^{[13][14]}	2013-2017	Oybek Qosimov
Alisher Sultonov	2017-2018	Oybek Qosimov
Umid Ahmadjonov	2018-yildan	Jasur Matchanov

O‘zbekiston Respublikasi olimpiya akademiyasi va uning faoliyati

Xalqaro olimpiya akademiyasining topshirig‘i bilan milliy olimpiya qo‘mitalari qoshida milliy olimpiya akademiyalarini tuzish, xamkorlik qilish va ular faoliyatini uyg‘unlashtirishda muxim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasi 1992 yili 21 yanvarda tashkil topib, 1993 yili sentyabr oyida xalqaro olimpiya qo‘mitasining 101 sessiyasida tan olindi.

1993 yil 18 aprelda O‘zbekiston Respublikasi olimpiya akademiyasi O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasi xuzurida tashkil etildi. Uning prezidenti professor . A.Q. Xamrokulov va uning ijroiya direktori dots. B.S. Radjapov tarkibidagi delegatsiya 1994 yilda Olimpiyada bo‘lib o‘tgan XOAning sessiyasida ishtirok etdi.

O‘zR OAning ijroiya qo‘mitasi tarkibiga yetakchi olimlar, professor o‘qituvchilar, murabbiylar, tibbiyot xodimlari va fan va madaniyat ,olimpiya harakati arboblari kiritilgan.

O‘zbekiston milliy olimpiya akademiyasiga Abdulxamid Xamrakulov, Ropigjon Qudratov, Jasur Akramov., Olim Qurbanov va SHoakram Isroilovlar raxbarlik qilib keldilar.

O‘zR OA ustavida, O‘zR MOQ rahbarligi ostida harakat qiladigan ko‘ngilli jamoat tashkiloti hisoblanadi.. O‘zbekiston Respublikasi OA maqsadlari olimpizm, olimpiya harakati va Olimpiya o‘yinlarining insonparvar qadriyatlari tamoyillari va g‘oyalarini o‘rganish, tarqatish, ommalashtirish hamda rivojlantirishdan iborat. O‘zR OAning dolzarb vazifasi bo‘lib mamlakatimiz aholisi olimpiya ta’limotining tashkiliy va ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish, mintaqaviy Olimpiya akademiyalari bilan aloqalar o‘rnatish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi OA maqsadlari olimpizm, olimpiya harakati va Olimpiya o‘yinlarining insonparvar qadriyatlari tamoyillari va g‘oyalarini o‘rganish, tarqatish, ommalashtirish hamda rivojlantirishdan iborat. O‘zR OAning dolzarb vazifasi mamlakatimizda olimpiya ta’limotining tashkiliy va ilmiy-usuliy asoslarini yaratish, mintaqaviy Olimpiya akademiyalari bilan aloqalar o‘rnatish hisoblanadi.

Olimpizm va olimpiya harakatini targ'ib qilish yanada yangi shakllarga ega bo'lmoqda.

OA o'zining faoliyatida XOQ va XOA , sport turlari bo'yicha milliy federatsiyalar, turli yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik qiladi. OAning asosiy faoliyati olimpizm g'oyalarini amalga oshirishdir.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda milliy olimpiya akademiya faoliyatini rivojlantirish, hududiy bo'limlarni tashkil etish, hududiy akademiyalarni hududiy federatsiyalar bilan hamkorlikda faoliyatlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va bolalar va o'smirlar sport maktablari, barkomol avlod markazlari, maktabdan tashqari muassasalar bilan aloqalar o'rnatish olimpizm g'oyalarini amalga oshirish va uni tashviqot va targ'ibot qilish dolzarb masalalar hisoblanadi.

O'zbekiston olimpiya akademiyasi faoliyati doirasida keng aholi o'rtasida, oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus kasb xunar ta'limi muassasalari umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari va yoshlarni sog'lom turmush tarzi bilan munosabatda bo'lishi olimpiya ta'limi dasturini amalga oshirish, olimpiya mavzulari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish, aholi o'rtasida olimpizm g'oyalari va tamoyillarini takomillashtirish, tarqatish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi olimpiya akademiyasi maqsadlari olimpizm, olimpiya harakati va olimpiya o'yinlarining insonparvar qadriyatlari tamoyillari va g'oyalarini o'rganish, tarqatish, ommalashtirish hamda rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi olimpiya akademiyasining dolzarb vazifasi mamlakatimizda olimpiya ta'limotining tashkiliy va ilmiy-usuliy asoslarini yaratish, mintaqaviy olimpiya akademiyalari bilan aloqalar o'rnatish hisoblanadi. olimpizm maqsadi jamiyatda tinchlik yaratish orqali insonning qadr-qiymatini yuqori pog'onalariga ko'tarishdan iborat. Zamonaviy olimpizm jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida alohida o'rin tutadi, odamlarning turmush tarziga jiddiy ta'sir o'tkazadi va uni shakllantiradi, odamning sport faoliyati tarzini vujudga kelishida as qotadi. U dunyo bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy formatsiya tarzida tan olingan bo'lib, unda insonparvarlik qadriyatlari va

odamlarning tinchlikka, hamjihatlikka va o'zaro bir-birini tushunishga bo'lgan xohishlari, intilishlari o'z ifodasini topgan.

Olimpiya ta'lim tizimini yaratish, tashviqot va targ'ibot qilish jarayonida o'quvchi-yoshlarni olimpizm ideallari va qadriyatlari bilan tanishtirish, kelajak avlodni tarbiyalash va o'qitishga katta e'tibor berish, Olimpiya o'yinlari, olimpiya harakati tarixi, olimpizmning gumanistik g'oyalari va qadriyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirib boriladi

Xalqaro olimpiya akademiyasining olimpiya ta'limida tutgan o'rni va ahamiyati

XOAning ta'lim dasturi birinchi o'rinda o'quvchi yoshlarga olimpiya ta'limini berish muammolariga e'tabor qaratadi. Birinchi marta "Olympic Education" "Olimpiya ta'limi"- 1968 yili Italiyalik pedagog Sisto Favre tomonidan MOQ ning 8-sessiyasida ilgari surildi.

1972 yil XOAning 12-sessiyasida nemis olimi Emrs Loverbook "Maktablarda olimpiya printsplarini tashviqot qilish masalalari bo'yicha ma'ruza qiladi va bu mavzu 1974 yil XOA 13-sessiyasida ham Avstraliyalik olim Nekrman Andres tomonidan davom ettirildi. Uning nutqida olimpiya g'oyasi va uni maktabda amalga oshirishni uchta asosiy omillarini ochib berdi, muallif fikricha:

- olimpiya ta'limi maktab ta'lim tizimida o'z aksini topishi kerak;
- olimpiya ta'limini takomillashtirish uchun harakatlar zarur;
- madaniy festivallar va sportning integrallashuvi omillariga e'tibor qaratish lozim;

1977 yili XOA 16-sessiyasida Gretsiya vakili Tayvis Doxas "Yoshlarni tinchlik ruhida tarbiyalashda olimpiya g'oyasi ahamiyati kattaligi haqida aytdi". 1979 yil XOA 18-sessiyasida va 1986 yil 25-sessiyasida XOQ a'zosi Tunis bosh vaziri Muxamed Mzali "Olimpizm-bu falsafa, uning maqsadi har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash va takomillashtirish, ruhiy intellektual, jismoniy tarbiyalashning birdamligidir" degan g'oyani ilgari surdi.

1979-yil XOA 18-sessiyasida Gretsiyalik jismoniy tarbiya general inspektori Trisintar Xulas Karatanis Gretsiya maktablarida olimpizmni amalga oshirish jarayonini o'rganish bo'yicha o'z tajribasini o'rtoqlashdi. 1980 yil XOA 19-sessiyasida John Povel olimpizmni falsafa bilan bog'liqligini, Per de Kubertenni olimpizm falsafasini Aristotel va Ploton shaxsi falsafasini bog'liqligini o'rgandi va maktab o'quvchilariga olimpiya ta'limini faollashtirishni har-xil shakllariga e'tibor qaratdi.

XOA ning 26-sessiyasi (1987) estetik tarbiya olimpiya ta'limining muhim bir tarkibiy qismlari ekanligiga bag'ishlandi.

XOA 27-sessiyasida Robert Poul (AQSH) "Olimpiya ta'limini metodikasiga e'tibor qaratib, ushbu masalaga o'zining qarashi bilan o'z fikrlarini mamlakatida bolalar o'rtasida insholar tanlovini, rasmlar tanlovini, olimpiya kunlarini o'tkazish xaqida fikr almashishdi.

Germaniya vakili Nuris Vayskal davra suhbatlari, festivallar, olimpiya kunlari va haftaliklarini tashkil etish muhimligini ta'kidladi.

Rossiya vakillari S.Neverkovich o'zining ma'ruzalarida Rossiya maktab o'quvchilarining olimpiya bilimlarini shakllantirishning usullariga to'xtalib, Fair play tamoyili asosida axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirish usullari haqida

fikr bildirdi.

XOA 28-sessiyasida (1989) Vengriyalik olimlar Arday Mayslo quyidagi qoidalarini bilan o'rtoqlashdi ya'ni olimpiya ta'limining asoslari:

- sog'liqni saqlash uchun harakat faolligi;
- sport go'zallik timsoli;
- Fair play ruhida mardlikni tarbiyalashni ko'rsatib berdi.

Germaniyalik professor Maykl Kryuger zamonaviy ta'lim tizimida olimpiya pedagogikasining evolyutsiyasi va roli haqida, Polshalik olim Herman Angreks olimpiya ta'limi tizimida kognitiv usullar haqida, Ispaniya vakili Konsado Dusater olimpiya harakati tashkilotchilari va jismoniy tarbiya o'qituvchilariga o'quvchilarga olimpiya qadryatlari haqida bilimlarni yetkazish masalalari haqida, Nemis professori Aoland Haul ta'lim berishda estetik qadryatlar va gumanizm nuqtai nazaridan olimpiya pedagogikasini ko'rib chiqish taklifini kiritdilar.

Rossiyalik olim V.Rodichenko umumiy ta'lim maktablarida olimpiya pedagogikasini amalga tatbiq etishda volontyorlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratadi.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, XOA xalqaro tadqiqotlar markazi ma'lumotlariga tayanadi. Akademiya bilan mustaxkam aloxida bo'lib olimpiya harakatining muhim masalalarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Xalqaro olimpiya akademiyasi milliy olimpiya akademiyalari faoliyatining koordinatori bo'lib hisoblanadi. Taklif etilgan dasturlar yoshlar faoliyatini chet tillarini o'rgatish, madaniy an'analarni va qadriyatlarni o'rganish, dunyoviy muammolarga jamiyat e'tiborini qaratish, ekologiya, iqtisod, sog'lom turmush tarzi va ta'limga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Olimpiya akademiyasi faoliyati doirasida keng aholi o'rtasida asosan maktab o'quvchilari va yoshlarni sog'lom turmush tarzi bilan munosabatda bo'lishi olimpiya ta'limi dasturini amalga oshirish, olimpiya mavzulari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish, aholi o'rtasida olimpizm g'oyalari va tamoyillarini takomillashtirish, tarqatish ishlari amalga oshiriladi.

MOA o'zining faoliyatida XOQ va XOA bilan sport turlari bo'yicha milliy federatsiyalar bilan bo'ysinishdan qat'iy nazar turli yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik qiladi. MOAning asosiy faoliyati olimpizm g'oyalarini amalga oshirishdir.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda MOA faoliyatini rivojlantirish, hududiy bo'limlar faoliyatini tashkil etish, hududiy akademiyalarni hududiy federatsiyalar bilan faoliyatlarini hamkorlikda tashkil etish, ta'lim muassasalari bilan aloqalar o'rnatish olimpizm g'oyalarini amalga oshirish va uni tashviqot va targ'ibot qilish dolzarb masalalar hisoblanadi.

O‘zbekiston olimpiya shon-shuhrati muzeyi

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi 284-sonli qarori bilan tashkil etilgan. Uning 1996-yil 1-sentabrdagi tantanali ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining o‘sha vaqtdagi Prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etishdi.

O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi Olimpizm qadriyatlarini va „halol o‘yin“ tamoyillarini targ‘ib qilishda, O‘zbekiston sportchilarining g‘alabalari va O‘zbekistonda Olimpizmning rivojlanish tarixi to‘g‘risida keng jamoatchilikka ma‘lumot berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda muzey O‘zbekiston sportchilarining Olimpiya o‘yinlaridava boshqa muhim xalqaro musobaqalarda qo‘lga kiritgan g‘alabalarini o‘zida aks ettiruvchi mavzuli ekspozitsiyalar va ko‘rgazmali tadbirlarni doimiy ravishda tashkil etadi. O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi asosiy fondidan 2000 dan ortiq eksponat o‘rin olgan, shulardan 1000 dan ortiq eksponat doimiy ekspozitsiyaga qo‘yilgan.

Muzeyda medallar, kuboklar, mayoqlar, pochta markalari, badiiy tasmalar, sport inventarlari va kiyim-kechaklari ko‘p miqdorda ko‘rgazmaga qo‘yiladi.

Olimpizm va olimpiya harakatini targ‘ib kilish yanada yangi shakllarga ega bulmokda. Olimpiya muzeylari mana shunday tashkiliy shakllardan biri hisoblanadi. Ularning birinchisi 1993 yil 23-iyunda X.A.Samaranch tashabbusi bilan Lozannada (XOQ shtabi kvartirasi joylashgan yerda) tashkil qilingan. 1995 yilda bu muzey jamoatchilik tomonidan yuksak darajada tan olingan: unga Yevropada yilning eng yaxshi muzeyi sovrini topshirilgan.

Lozannadagi Olimpiya muzeyi olimpiya harakati tarixining ajoyib ibodatxonasi hisoblanadi. Shu bilan birga u xalk,aro olimpiya harakati o‘tmishi va hozirgi paytini birlashtiruvchi samarali axborot hamda targibot markazidir. Muzeyda turli yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun ajoyib sharoitlar yaratilgan.

San‘at, ayniqsa, badiiy kurgazmalarni tashkil qilishga katta e‘tibor beriladi. Unda ilmiy-texnika taraqqiyotining eng oxirgi yutuqlaridan oqilona foydalaniladi.

1996 yil 2 sentyabrda Toshkentda O‘zbekistan olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi. Ushbu voqeaning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi yana shundan ma‘lumki, mazkur muzey ochilishida Uzbekistan Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va o‘sha paytda Osiyoda yagona va noyob bo‘lgan olimpiya muzeyning ochilishi marosimida ishtirok etish uchun maxsus yetib kelgan X.A.Samaranch qatnashdi. Marosimda sport faxriylari, Olimpiya uyinlari sovrindorlari va ishtirokchilari, diplomatik korpus, xalqaro tashkilotlar

vakillari, poytaxt jamoatchiligi hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Karnay va surnay navolari ostida milliy liboslardagi qizlar o'zbek yerining ajoyib gullarini yuksak mehmonlarga taqdim etdilar. Yig'ilganlar oldida I.A.Karimov so'zga chiqdi. U yangi muzey nafaqat eksponatlarni namoyish qilish joyi, balki O'zbekistonda sport harakatini rivojlantirish markazi bo'lishi, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashga katta hissa qushishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.

So'ngra O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov X.A.Samaranchga olimpiya harakatini rivojlantirish, davlatlararo hamkorlik, xalqlar o'rtasidagi tinchlik, do'stlik va o'zaro munosabatlarni mustahkamlash hamda O'zbekiston sportini qo'llab-quvvatlashdagi xizmatlari uchun O'zbekiston xukumatining yuksak mukofoti — «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini topshirdi.

XOQ prezidenti javob nutqida bu yuksak mukofotni xalqaro olimpiya qo'mitasining yer yuzida tinchlikni mustahkamlash, sportni rivojlantirish ishiga qo'shgan hissasini tan olish sifatida qabul qilayotganligini ta'kidlab o'tdi. «Birinchi Prezident I.A.Karimov, — ta'kidladi u, sportning jamiyat hayotidagi o'rniga katta e'tibor qaratadi. Shuning uchun ham sizning davlatingizda sport tez sur'atda rivojlanmokda.

Men ishonamanki, muzey o'zbekistonlik sportchilar turli jahon musobatsalarida kulga kiritadigan medallar bilan tuldirib boriladi».

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va XOQ prezidenti X.A.Samaranch yangi muzeyga kirish oldida lentani kirkdilar. Eksponatlarni ko'zdan kechirish davomida X.A.Samaranch shunday fikr bildirdiki, ushbu muzey Lozannadagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyidan krlishadigan joyi yuk,. Xaqiqatdan ham, bu yerda qimmatbaho eksponatlar ko'p bo'lib, ular nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro olimpiya hapakati, milliy sport turlari tarixi xamda O'zbekiston sporti an'analari to'g'risida hikoya qiladi. U muzeyga qimmatbaho eksponatlar sovg'a qildi.

Muzeyning qimmatbaho eksponatlari — bu Birinchi Prezident I.A.Karimov sovg'a qilgan halkaro sportni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun takdirlangan mukofotlari: XOQning Oltin Olimpiya ordeni, Osiyo Olimpiya kengashining Oltin Olimpiya ordeni, Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasining «Oltin marjoni». Ular muzeyda markaziy o'rinni egalladi.

Muzeyda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixiga oid xujjatlar fondini yaratish buyicha har-tomonlama ish olib boriladi. Bu yerda davlatimizning sporti va olimpiya harakati tarixi to'g'risida hikoya qiluvchi materiallar to'planadi hamda ko'rgazmaga qo'yiladi. Mamlakatimiz olimlari o'zbek sporti tarixiga oid materiallarni yig'ish va tahliliy ko'rib chiqish

borasida yirik xajmda ishlarni bajardilar. O'zbekistonning tanikli va buyuk sportchilari olimpiya maskaniga o'zlarining sport mukofotlari, fotosuratlari, gazetalardan olingan xujjatlar, yorlikdar, diplomlar, sport nishonlari va boshqa jismoniy tarbiya harakati tarixiga oid materiallarni topshirdilar.

Materiallarning keng va turli ekspozitsiyasi, binoning uziga xos betakror arxitekturasi, muzeyning o'zbek uslubida bajarilgan ichki qismi xorijiy mehmonlarda katta taassurot qoldirmoqda. Bu hakida xalqaro sport tashkilotlari vakillari muzeyda O'zbekiston davlat sport qo'mitasi, MOQ rahbariyati, yetakchi sportchilar va mutaxassislar bilan bo'lgan uchrashuvlarda o'z nutqlarida ta'kidlab o'tadilar.

Muzeyning vazifasi: olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish bilan birga respublikada jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o'yinlarini yuksaltirish, shuningdek, O'zbekiston sportchilarining jahon miqyosidagi nufuzini mustahkamlash ishiga ko'maklashish. Muzeyda 11 mingdan ziyod eksponatlar: turli buyumlar, ashyolar, rasmlar, yorlikdar va musobaqalarning g'oliblariga berilgan kuboklar, medallar, nishonlar mavjud. Ular AQSH, Ispaniya, Shveysariya va boshqa xorijiy davlatlardan olib kelingan. Muzeyning 1-qavatida noyob eksponatlar joylashtirilgan. Prezident I. Karimovning muzeyga sovg'alari ham bor. Bular xalkaro sportni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun O'zbekiston Prezidentiga XOQ Prezidenti top-shirgan Olimpiada oltin ordeni, Osiyo Olimpiada Kengashining Olimpiada oltin ordenidir. Shuningdek, bu yerda Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasining "Oltin marjoni", professional boks bo'yicha 16 karra jahon chempioni A. Grigoryannint chempionlik oltin kamari, gulchambari va medallari, olimpiada o'yinlari vaqtida tayyorlangan turli medallar va nishonlar bor. Muzeyning 2-qavatida Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan yillar xronologik tarzda berilgan bo'lib, ularda ishtirok etgan o'zbekistonlik sportchilarning kiyimlari, asbob-anjomlari, suratlari, mukofotlari bilan tanishish mumkin. O'zbekiston mustaqilligi yillarida sportchilari-mizning jahon, Yevropa birinchiliklari, Osiyo, Markaziy Osiyo o'yinlari, Toshkent va xorijiy mamlakatlarda o'tkazilayotgan turli xalqaro turnirlarda erishgan yutuqlari, qo'lga kiritgan sovrinlari muzey eksponatlarining asosini tashkil etadi.

O'quvchi yoshlar olimpiya ta'limi tizimi

Ming yilliklar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan olimpizm bir qancha g'oyalar va ta'surotlar oqimini yuzaga keltirganligiga guvox bo'lamiz. Eramizdan oldingi yuz yilliklar qarida paydo bo'lgan olimpiya ruhi, nafaqat yashab qoldi, balki, ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan bo'lsada, bizning davrimizgacha yetib keldi. Qadimgi greklar yaratgan barkamol shahs, komil inson timsoli, hozirgi kunda ham bizga zulmatdagi yog'du kabi nur sohib, tana va ruhiyat, ongning tashqi hamda ichki shakllarini birlashtirishga da'vat etib turibdi.

1996 yil yanvar oyida jahon sportini rivojlantirishdagi buyuk xizmatlari va Olimpiya g'oyalariga chinakam sadoqati uchun O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Olimpiya Oltin ordeni bilan mukofotlandi. Islom Karimov o'sha taqdirlash marosimida "Oltin orden meniki emas, O'zbekiston xalqiniki hamda u yangi ochilayotgan muzeydan joy oladi", deb yaxshi, ezgu niyat qilgan edi. Bugungi kunda bu orden Olimpiya shon-shuhrati muzeyining doimiy eksponatlaridan biriga aylangan. Islom Karimov fikricha: "hech bir xalqning qudrati, mashhurligi, buyukligi, xalqaro obro'-e'tibori undagi to'plar yoxud boshqa, qurol-yarog'larning soni bilan o'lchanmaydi, ularni esa avvalambor, millatning sog'lomligi, ma'naviy va moddiy salohiyati, kuchi bilan o'lchamoq kerak. Shu jihatdan Olimpiya shuhrati muzeyini ochish fikriyam o'z-o'zidan qup-quruq joyda paydo bo'lgani yo'q. Chunki bizda dunyoning istagan muzeyida namoyish etishga bema'lol arziydigan tariximiz, an'alarimiz, qadriyatlarimiz va yutuqlarimiz bor...".

Mamlakatimizda chorak asr mobaynida jismoniy tarbiya va sportning takomillashib borishi xukumatimizning jismoniy tarbiya va sportgi bulgan e'tibori davlat siyosati darajasiga chikarildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga karatilgan karorlari respublikamiz axolisini sogligini mustaxkamlashga jaxon sportida O'zbekistonninig uz urni borligini kursatib, olimpiada musobakalari, jaxon va osiyo chempionatlari bir kancha xalkaro turnirlar sportchilarimizning uz tutgan urnini kursatib berdi.

Olimpiya harakati bu – yer yuzidagi butun dunyo sportining rivojlanish jarayonidir. Olimpizm fenomeni turli mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlarini aks ettirib turibdi. Butun jahon olimpiya harakati zamonaviy dunyo ko'zgusiga va uning diqqat markaziga aylandi.

Butun dunyoda olimpiya harakatini boshqarish hamda o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish maqsadida 1984 yil 23 iyunda Frantsiyaning Sarbonna universitetida frantsuz pedagogi P'єr de Kuberten tashabbusi bilan kongress o'tkaziladi. Kongressda xalqaro olimpiya qo'mitasi (XOQ) tashkil etildi. Shu kundan boshlab

23 iyun Xalqaro “Olimpiya kuni” deb e’lon qilindi. Bu kuni bayram sifatida dunyoning besh qit’asida nishonlanib kelinmoqda.

O’zbekiston Milliy Olimpiya qo’mitasi 26 yildirki yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali jamiyatda sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, Olimpiya harakati va olimpizm g’oyalarini kengroq targ’ib qilish yo’lida faol ish olib bormoqda.

O’zbekiston Milliy Olimpiya qo’mitasi 1992 yil 21 yanvarda tashkil topgan bo’lib, 1995 yil sentyabr oyida xalkaro olimpiya qo’mitasining 101 sessiyasida rasman tan olingan.

O’zbekiston olimpiya harakatining faoliyati O’zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risidagi” qonun (2015 yil 4 sentyabr yangi taxrir) hujjatlarida belgilab qo’yilgan.

17-modda. O’zbekiston olimpiya harakati. O’zbekiston Milliy olimpiya qo’mitasi.

O’zbekiston olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining tarkibiy qismi bo’lib, uning maqsadi olimpiya harakati printsiplarini ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko’maklashish, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, Olimpiya o’yinlarida hamda Xalqaro olimpiya qo’mitasi boshchiligida o’tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

O’zbekiston olimpiya harakati, O’zbekiston Milliy olimpiya qo’mitasi: — respublika nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan boshqariladi, ushbu qo’mita o’z faoliyatini O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, Xalqaro olimpiya qo’mitasining Olimpiya xartiyasiga hamda o’z ustaviga muvofiq amalga oshiradi. Davlat O’zbekiston Milliy olimpiya qo’mitasiga o’z ustavida belgilangan maqsadlarini amalga oshirishiga har tomonlama ko’maklashgan holda, O’zbekiston olimpiya harakatini tan oladi va qo’llab-quvvatlaydi.

O’zbekiston Milliy olimpiya qo’mitasi:

olimpiya harakati printsiplarini ommalashtiradi, yuksak yutuqlarga erishiladigan sportni va ommaviy sportni rivojlantirishga ko’maklashadi;

Xalqaro olimpiya qo’mitasining Olimpiya xartiyasiga muvofiq Olimpiya o’yinlarida hamda Xalqaro Olimpiya qo’mitasi boshchiligida o’tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida O’zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi;

sportchilarni Olimpiya o’yinlarida hamda Xalqaro Olimpiya qo’mitasi boshchiligida o’tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlashning zarur darajasini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

sportda dopingning oldini olish hamda unga qarshi kurashishga, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitish va zo’ravonlikning har qanday

shakllari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashadi;

Xalqaro olimpiya qo'mitasining hamda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining olimpiya ramzlari, shiori, bayrog'i, madhiyasidan, «olimpiya», «olimpiada» nomlaridan foydalanishga bo'lgan huquqlarini O'zbekiston Respublikasi hududida himoya qilish choralarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi o'z vakolatlarini maxsus vakolatli davlat organi, sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi nodavlat- notijorat tashkiloti bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro olimpiya qo'mitasi, Olimpiya xartiyasi xamda O'zbekiston milliy olimpiya qo'mitasining Ustavi asosida ish yuritadi.

O'zbekiston milliy olimpiya qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekistonda olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpizm g'oyalarini keng targ'ib etish;

- Olimpiada, Osiyo, O'smirlar olimpiya o'yinlarida Respublika sport federatsiyalarining vakili bo'lish;

- Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Osiyo olimpiya kengashi, boshqa mamlakatlar Milliy olimpiya qo'mitalari, xalqaro sport federatsiyalari va uyushmalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, XOQning "Olimpiya birdamligi" dasturida ishtirok etish;

- Respublika aholisini jismoniy va ma'naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa, milliy sport turlari, nogironlar o'rtasida sportni rivojlantirishga atroflicha ko'maklashish;

- davlat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga mamlakat terma jamoalari va sport zaxiralarini tayyorlashga doir ishlarida ko'maklashish;

- yoshlarni boshqa mamlakatlar sportchilari bilan do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, musobaqalarda xalol sport kurashi olib borish, raqibiga oliyjanoblik bilan munosabatda bo'lish tamoillari asosida tarbiyalash;

- O'zbekiston sportchilari yutuqlarini keng targ'ib etish;

- Sport mutaxassislari o'rtasida tajriba almashish, ularning malakalarini oshirish uchun anjumanlar, seminarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish.

Har yili sportchilar va murabbiylarning bilim, tajriba va mahoratini oshirish maqsadida MOQ tashabbusi bilan xalqaro seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlar, mintaqaviy forumlar tashkil etilmoqda. Bu ham o'z navbatida xalqaro sport maydonlarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar salmog'ini yil sayin yuksalishida

aloxida ahamiyat kasb etmokda. Mamlakatimiz sportchilari uchun davlatimiz tomonidan qaratilayotgan alohida e'tibor va yaratilayotgan shart–sharoitlar sport olamining yeng yirik musobaqalarida qo'lga kiritayotgan muvofaqiyatlarga ham zamin yaratib bermoqda.

Xalkaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan rasman tan olingan kundan boshlab yurtimiz sportchilari mustaqil to'rt yillikning eng yirik nufuzli musobaqasi qishgi va yozgi Olimpiada o'yinlariga ishtirok etish huquqiga ega bo'ldilar.

1994 yildan Osiyo va Qishki olimpiya o'yinlarida, 1996 yildan yozgi olimpiya o'yinlarida munosib ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommoviy sportni yanada rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, dasturga ko'ra o'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan 3 bosqichli “Umid nixollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport o'yinlari dasturlarini sportning ommoviy turlari xisobiga kengaytirish, nufuzini oshirish va musobaqa g'oliblarini munosib rag'batlantirish tizimini tubdan takomillashtirish nazarda tutilgan.

Dastur doirasida rejalashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommoviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida jami 995.2 mlrd. so'mdan ziyod mablag' sarflanishi nazarda tutilgan bo'lib, shundan 706.2 mlrd. so'mdan ortiq qismi ushbu yillarda jami 167 ta sport inshooti, jumladan, 90ta sport majmuasi hamda 77 ta suzish xavzasini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital tamirlash xamda jixozlash va qayta jixozlashga yo'naltirilishi olimpiya harakatini rivojlanishiga zamin yaratadi.

Braziliyaning Rio de Janeyro shahrida o'tkazilgan XXXI yozgi olimpiya va XVI Paraolimpiada o'yinlarida yurtimiz vakillari yuqori natija ko'rsatishi vatanimiz shon-shuhratini yanada oshirdi.

Mamlakatimiz sportchilari uchun davlatimiz tomonidan qaratilayotgan alohida e'tibor va yaratilayotgan shart –sharoitlar sport olamining eng yirik musobaqalarida qo'lga kiritayotgan muvofaqiyatlarga zamin yaratib bermoqda. Shu sababdan sportchilarimizning har tomonlama tayyorgarlik ko'rishlari barchani zo'r qiziqish bilan jalb etmoqda. Bu esa o'z navbatida Olimpiya harakati g'oyalarini yanada chuqurroq o'rganish, uning tarbiyaviy, madaniy, ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini aholiga singdirib borishni xozirgi zamon davri taqozo etmoqda.

“O'quvchi yoshlar uchun olimpiya ta'limining samarali tizimini yaratishdan maqsad ,mamlakatimiz o'quvchi yoshlarini har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda olimpiya ta'limining insonparvarlik, halollik, olimpiada madaniyati, qadriyati, olimpizmning gumanistik g'oyalarini va bilimlarini shakllantirish samarali tizimini yaratish.

“O’quvchi yoshlar uchun olimpiya ta’limining samarali tizimini yaratishning vazifalari, jamiyatda sog’lom turmush tarzini shakllantirish ayniqsa, o’quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug’ullanishga ko’proq jalb qilish.

- Aholini jismoniy va ma’naviy tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa milliy sport turlari va o’yinlari muhim ahamiyat kasb etishini targ’ibot qilishga ko’maklashish.

- Xalqimizga Olimpizm qadriyatlarini hamda, “halol o’yin” tamoyillari ruhida tarbiyalashni targ’ibot qilish.

- Olimpiya ta’limi olimpizm g’oyalarini o’quvchi yoshlarga o’rgatishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

- Olimpiada mavzusida varaqlamalar, cho’ntak tavqimlari, bukletlar, otkritkalar, ma’lumotnomalar, sportga oid kichkintoylar uchun olimpiya rasmlarini bo’yash uchun kitobchalar nashr etish.

- O’quvchi yoshlarga olimpiya ta’limini samarali tizimini yaratishda targ’ibot va tashviqot ishlarini tashkillashtirish.

- Olimpiya ta’limini rivojlantirishning ilmiy –uslubiy asoslarini o’quvchi yoshlar o’rtasida olimpizm g’oyasini va milliy olimpiya harakatining maqsad va vazifalarining asl maqsadini singdirib borish.

Olimpiya sporti tuzilmasi va tizimi quyidagicha.

“Olimpiya sporti” bilan bog’liq kontinental va regional o’yinlar, olimpizm g’oyalari va olimpiya tamoyillariga asoslangan.

“Olimpiada tuzilmasi” olimpiya o’yinlarining o’rtasidagi to’rt yillik davrni bildiradi. “Olimpiya o’yinlari tizimi”ni keng ma’noda sharxlasa, u holda uni - sport va madaniyat hamda ta’limni birlashtirib, mutanosib holatga keltiruvchi jarayon deb tushuniladi.

Olimpizmning asosiy tamoyillari.

Olimpiya harakatlariga ko’maklashish;

insonning demokratik huquqlaridan biri, u ham bo’lsa sport bilan shug’ullanish bo’lib, unga kerakli shart – sharoitlarni vujudga keltirishda rahnamolik qilish;

har bir insonga sport bilan shug’ullanishga ko’maklashish;

insonlarni (har jihatdan) kamsitishning barcha xildagi ko’rinishlariga barham berish;

olimpiya harakatiga aloqasi bor har bir mamlakat yoki shaxs Olimpiya Xartiyasi qoidalariga rioya qilishi va xalqaro Olimpiya qo’mitasini tan olishi zarur.

Olimpiya harakati kuyidagi mazmunni anglatib, “Olimpiya harakati” deganda, shunday majmua tushuniladiki, uning tarkibiga xalqaro Olimpiya qo’mitasi (XOQ), milliy federatsiyalar, milliy Olimpiya qo’mitalari, Olimpiya

o'yinlarining tashkiliy qo'mitasi, milliy assotsiatsiyalar, klublar va ularning a'zolari, dastavval sport bilan shug'ullanuvchilar, xakamlar, murabbiylar (trenerlar) va sport bilan bog'langan boshqa shaxslar kiradi.

Olimpizm nima. Olimpiya Xartiyasida olimpizmga shunday ta'rif beriladi: Olimpizm - bu tana, iroda va ong qadr qimmatini muvozanatlashgan bir butunlikka birlashtiruvchi hayot falsafasidir. Sportni madaniyat va ta'limot bilan birlashtiruvchi olimpizm sa'yi-harakatdan quvonish, yahshi namuna hamda asosiy umumiy ahloqiy tamoyillarni hurmat qilishning tarbiyaviy qiymatiga asoslangan turmush tarzini yaratishga intiladi. Ko'rinib turibdiki, olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog'liq. Uni o'quvchi yoshlarning ta'lim tarbiyasiga joriy etishda olimpiya ta'limining ahamiyati muhim hisoblanadi.

Olimpizmning maqsadi – jamiyatda tinchlik yaratish orqali insonni qadr – qiymatini yuqori pog'onalarga ko'tarishdir. Olimpizmga teng keladigani yo'q. Zamonaviy Olimpizm jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida alohida o'rin tutadi, odamlarning turmush tarziga jiddiy ta'sir o'tkazadi va uni shakllantiradi, odamning sport faoliyati tarzini vujudga kelishida as qotadi. U dunyo bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy farmatsiya tarzida tan olingan bo'lib, unda insonparvarlik qadriyatlar va odamlarning tinchlikka, hamjixatlikka va o'zaro bir-birini tushunishga bo'lgan xoxishlari hamda intilishlari o'z ifodasini topgan. Olimpiya Xartiyasi, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Olimpizmning tamoyillari poydevori bo'lib asosiy qoidalari va rasmiy tushuntirishlar orqali tasdiqlangan hisoblanadi.

“Olimpiya o'yinlari”- bu indivudial va jamoa sport turlari bo'yicha mamlakatlar o'rtasida emas, balki sportchilar o'rtasidagi o'tkaziladigan musobaqalardir. Turli Mamlakatlar sportchilari o'rtasida do'stlikni va birodarlikni mustahkamlovchi sport o'yinlaridir.

Olimpiya xartiyasi asosiy hujjat xisoblanib, Olimpiya Xartiyasi, 11 fevral 2010 yilda ishlab chiqilgan Olimpiya Xartiyasi 4 bo'lim va 59 ta moddadan tashkil topgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi ustavi va Olimpizmning tamoyillari, poydevori bo'lib asosiy qoidalari va rasmiy tushuntirishlar orqali tasdiqlangan hisoblanadi.

Ushbu xartiya Olimpiya harakatlarining tarkibini, ta'sir etish tilsimini va Olimpiya harakati jarayonini belgilaydi, hamda Olimpiya o'yinlarini amalga oshirishni aniqlaydi. Bu jarayon 3 ta asosiy vazifadan iborat bo'ladi.

Olimpiya ta'limi nizomi, olimpiya Xartiyasi asosiy qonun xususiyatiga ega bo'lgan bosh dastur tarzida olimpizmning poydevori bo'lib, asosiy tamoyillari va ajratib bo'lmaydigan qadriyatlarni belgilaydi;

- Ushbu hujjat – Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining nizomidir;

U Olimpiya harakatini tashkil etuvchi 3 ta asosiy tarkibiy qismlarining bosh xuquqlari va majburiyatlarini aniqlab beradi.

Olimpiya Xartiyasining 3 ta tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro Olimpiya harakati;
2. Xalqaro Olimpiya harakati sport federatsiyalari, milliy olimpiya qo'mitalari;
3. Olimpiya Xartiyasi qoidalarini bajarilishi majbur bo'lgan Olimpiya o'yinlarining xuquqlari bo'yicha tashkiliy qo'mita.

Olimpiya ta'lim tizimini yaratishda, olimpiya ta'limini targ'ibot qilish jarayonida o'quvchi-yoshlarni olimpizm ideallari va qadriyatlari bilan tanishtirish, kelajak avlodni tarbiyalash va o'qitishga katta e'tibor berish. Olimpiya o'yinlari, olimpiya harakati tarixi, olimpizmning gumanitar g'oyalari va qadriyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirib borish.

O'quvchi yoshlarga olimpiya ta'limining pedagogik samarali tizimini yaratish uchun.

1. Ularni sportga bo'lgan qiziqishi, sport mashg'ulotlariga bo'lgan talab, sportdagi natija, musobaqalarda g'alabaga bo'lgan intilishni shakllantirish.

2. O'quvchi-yoshlarni turli yo'nalishdagi jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga jalb qilish.

3. Olimpiya ta'limi jarayonida ma'naviy va ma'rifiy tarbiya masalalariga yetarlicha e'tibor qaratish yoshlarda yuksak ma'naviy qadriyatlar, zarur bo'lgan ko'rsatmalar hamda sport faoliyati bilan shug'ullanish sabablarini tarbiyalashda yordam beradi.

4. Olimpiya ta'lim tarbiyasida nafaqat tarixiy sanalar, faktlar, olimpiya chempionlarini bilib olish, balki yoshlarni sportga faol jalb qilish, ularni o'z rekordlarini o'rnatishga bo'lgan intilishni rivojlantiradi va birinchi navbatda o'z ustidan g'alaba qozonishga o'rgatadi.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarni har tomonlama barkamol tarbiyalashda olimpizmning gumanistik g'oyalari va qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish, ularga olimpiya bilim asoslaridan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, olimpiya o'yinlari, olimpiya harakati tarixi, olimpizmning gumanistik g'oyalari va qadriyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish g'oyalarini ilgari surilishi dolzarb bulib turibdi.

Shu bilan bir katorida usib kelayotgan o'quvchi yoshlarni sportga jalb etish, ularni sportga bo'lgan qiziqishini oshirish, sport mashg'ulotlariga bo'lgan talablarni boshqarish, musobaqalarda g'alabaga erishishga bo'lgan kurash, sportda yuqori natijalarga intilishini shakllantirish haqida bilimlar bilan qurollantirish lozim.

O'quvchi yoshlarni va axolini turli tabaqalarini jismoniy tarbiya va sportning

turli xil shakllari, vosita va usullaridan sog'lomlashtirish va dam olish, jismoniy tarbiya va sportga jalb etish va sog'lom turmush tarziga amal qilishni targ'ibot qilish muximdir.

O'quvchi yoshlarni olimpiya ta'limi jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, jismoniy tarbiya va sportga oid bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy madaniyatning to'laqonli imkoniyatlaridan keng foydalanish ustivor ekanligini anglab yetish va o'quvchi yoshlar ongiga singdirish.

O'quvchi yoshlarga olimpiya g'oyalari bilan chanbarchas ma'naviy – ma'rifiy ishlarga etibor qaratish, milliy g'oya va milliy qadriyatlar va ananalarga sodiq vatanparvarlik ruxida tarbiyalash milliy g'oya va ananalarga zid bo'lgan turli oqimlarga qo'shilmaslik, sportchilarda uchrab turadigan manmanlik, ochko'zlik kabi salbiy sifatlarni shakllanishini oldini olish tarbiyada muxim ekanligini unutmazlik zarur.

Insonparvarlik g'oyalariga asoslangan olimpiya tarbiyasi sportchilarni yuksak ma'naviy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalashda maqsadga muvofiqdir. Uquvchi yoshlarga olimpizm ta'limining ilg'or usullarni qo'llash va amalga oshirishda targ'ibot va tashviqot ishlarida matbuot, radio, televideniya va turli xil ommoviy axborot vositalari katta ahamiyatga kasb etadi.

So'ngi yillarda o'quvchi yoshlarga olimpizm g'oyalari asosida ta'lim va tarbiya berish xaqida ilmiy tadqiqot ishlari paydo bo'lmoqda. 1994 yilda Frantsiya poytaxti Parijda xalqaro olimpiya qo'mitasining (XOQ) XI olimpiada kongressida, xalqaro olimpiada qo'mitasi prezidenti X.A.Samaranch tomonidan olimpizm g'oyalarni tarqatish xaqida fikr bildirgan edi. Ya'ni xalqaro olimpiada qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan kongresda "Olimpizm g'oyalarini o'rgatish jamiyatning xar qaysi bo'g'inlarida amalga oshirish zarur". Bu kongresning xotimasida quyidagicha belgilangan edi. "Olimpizmning axloqiy, madaniy, ta'limiy qadriyatlari sport amaliyotining kengayishi, ularni sharoitlari bilan olimpiada harakatini barcha qatnashchilari tomonidan jadallashtirilishi lozim. Sport amaliyoti olimpiya printsiplariga mos xolda amalga oshiriladi. Xususan maktablarda, ta'lim muassasalarida asosan ta'limning samarali shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Olimpizm bo'yicha ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlil etilganida, o'quvchi yoshlarning ta'lim - tarbiya tizimini olimpizm g'oyalariga bog'liq xolda amalga oshirish chet ellarda va vatanimiz olimlari, pedagoglari, filosoflari va ilmiy izlanuvchilari tomonidan xam olimpizmning zamonaviy sharoitda o'rganilmagan tomonlari uchraydi.

Nemis tadqiqotchisi G.Lenk "Olimpizm g'oyalarini yanada chuqurroq o'rganishga jalb qiladi" uning fikriga "Olimpiada o'yinlari uning ochilish, yopilish

marosimi, mukofotlash fakat bayonnomalar yig'indisidir".

Olimpiada g'oyasi va olimpizm ruxi bu tashqi simvollardan ko'ra ahamiyatliroqdir, uni zamonaviy o'quvchi yoshlar ongiga singdirish, shakllantirish, boyitish va saqlash zarur.

Olimpiada o'yinlarining tashqi simvollarini o'zgartirish zaruriyati tug'ilishi mumkin. Biroq bu bilan chegaralanish mumkin emas. Olimpiada tseremoniyasini o'zgartirish o'z yo'liga u zamonaviy olimpiada o'yinlari atrofida to'planib qolgan vaziyatga ta'sir etishi mumkin.

Olimpizmni rivojlanishidagi asosiy vazifa, olimpiada harakatidagi okilona islohotlar turadi.

Shunday qilib olimpizm o'quvchi yoshlarga ta'lim tarbiya berishda tarixiy, ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib kelmasdan, ba'ki uning muammolarini xal etishni yangi yo'llari topilmasa u o'ta muxim bo'lib turaveradi.

Shu munosabat bilan pedagogik nuqtai nazardan olimpizmning yangi kontsepsiyalarini izlash davr talabiga aylanmoqda.

Olimpiada harakati insonparvarlikni oliy g'oyalariga xizmat qilishi, ortiqcha dabdababozlikka berilmasligi lozim. Olimpiada harakatining insonparvarlik g'oyalari yuzasidan tadqiqotlar qilishi lozimligini ilgari suradi.

Pier de Kuberten fikriga kura olimpiada harakati faqat sportning maqsad vazifalari bilan chegaralanib qolmasligi lozim.

Dastlab olimpiada g'oyasi paydo bo'lgan bo'lsa, 1912 yildan sung Pier de Kuberten tomonidan olimpizm g'oyasii ilgari surildi.

Bu printsipga mos xolda sport, sport musobaqalari, avvalambor olimpiyada o'yinlari jamiyatda inson kamolotini takomillashtirishga, insonlarni uzaro munosabatini yaxshilashga, ananalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Zamonaviy madaniy an'analarga ko'ra olimpizm tushunchasi zamonaviy olimpiyada harakatining nazariyasiga asos soladi. Uning asosiy maqsadi sport vositasi orqali o'quvchi yoshlarni tarbiyalash yo'li bilan tinchlikni ta'milashga yo'naltirish, xalol o'yin, birodarlik va birdamlik muxitida kamsitishlarni xar qanday shakllarini oldini olib o'zoro bir birini tushunishdir.

Biroq olimpizmni faqat davlatlarni milliy manfaati yo'lida sport musobaqalari doirasida fikrlash mumkin emas.

M.A.Bogdanova ta'kidlaydiki olimpiada munosabatida sportni madaniyat va ta'lim bilan bog'lash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, quvonchdan zavqlanish, tarbiyaning qadri va axloqiy qoidalarga xurmat bilan qarash xarakterlidir.

Olimpizm kontsepsiyasida faqat sport madaniyatini shakllantirish yotmasdan P.Kuberten tomonidan XIX asr oxiri XX asr boshlarida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan gumanistik yo'naltirilgan yorqin nomoyon bo'lgan sport madaniyati

yotadi.

O'quvchi-yoshlar uchun millatni sog'lomlashtirish va ularni sportga yuksak natijalarga erishishga intilishiga zamin yaratish uchun olimpiyada g'oliblari va sovrindorlari haqida ko'proq ma'lumotlar to'plab Olimpiya harakatini rivojlantirish va uning g'oyasini tag'ibot qilish uchun olimpiada o'yinlari dasturlaridan o'rin olgan turlari haqida o'quvchi yoshlarga yetkazish bo'yicha ta'limning samarali tizimi ishlab chiqilib ta'lim muassasalari o'quv dasturiga kiritishni amalga oshirish kerak "Olimpiadachilar oramizda", "biz Olimpiadachilarmiz" shiori ostida, Olimpiada qatnashchilari va murabbiylari bilan davra suhbatlari o'tkazish ham targ'ibotning muhim vositasidir.

Olimpizm targ'iboti texnologiyalari yo'nalishlari vositalari va tamoyillari

Mamlakatimiz qudratini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri bu yuksak ma'naviyatli, jismonan va ruhan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".⁸

Bu borada ta'lim o'quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Olimpizm ta'limining targ'iboti va tashviqoti haqida to'xtalishdan avval "targ'ibot" va "tashviqot" tushunchalarining o'zagiga e'tiborni qaratish zarur.

"Targ'ibot", "tashviqot" so'zlarining ma'nosi nima? «Targ'ibot» so'zi arabcha rag'batlantirish, kishida, odamlarda u yoki bu narsaga hohish, mayl paydo qilishni anglatadi. «Tashviqot» esa, kishini, xalqni olimpizm g'oyasi atrofida birlashishga shavqlantirish, orzumand qilish, kuchli mayl, istak hosil qilish demakdir. Pedagogik-psixologik qonuniyatlar asosiga qurilgan tashviqot g'oya va shiorlarni amaliy kuchga aylantiradi.

Targ'ibot-insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgan. Targ'ibotchilarni shuning uchun ham «inson qalbining sozlovchilari» deb ataydilar. Demak, targ'ibot-tashviqotdan maqsad – faqat bilim orttirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, "Olimpizm ta'limi" haqida ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, qo'yilgan maqsadlarni aniq vazifalar shakliga keltirishimiz, olimpizm ta'limotidagi asosiy g'oya va ideallarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur.

Odamlarni u yoki bu maqsadga yo'naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayon. Bunda targ'ibot sub'ektlari (targ'ibotchilar, TV, radio, matbuot) va targ'ibot ob'ektlari (shaxs, axoli) ishtirok etadi.

Targ'ibot va tashviqotning samaradorligi xalq, jamoa siyosiy ongida targ'ibotgacha va targ'ibotdan keyingi darajalar orasidagi farqda bilinadi. Jamoa mafkurasidagi o'zgarishlar (siyosiy sotsiologiya, psixologiya va pedagogikaning ilmiy yutuqlariga asoslangan holda) ilmiy asosda olib borilsa, targ'ibot va tashviqot samarasini, yutuq va kamchiliklarini aniqlash va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

⁸ Мирзиёев Ш.М. "Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз". - Т.: "Ўзбекистон": 2017. - 485 б.

Olimpizm ta'limini berishdan avval ularning qanday targ'ibot usullaridan foydalanishlarini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi.

XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rasm bo'ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko'rilmagan darajada o'stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilmayapti, balki ma'naviy, mafkuraviy va ta'lim jarayonlarida ham o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizdagi ta'limiy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondashish olimpizm g'oyasi va ideallarini targib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Olimpizm ta'limini o'quvchilar ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muximligi shunda ko'rinadiki, masalan, targibotda me'yorning buzilishi, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targibot texnologiyasi olimpizmning mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Targib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o'rnashadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchisining olimpizm g'oyasiga chuqur ishonchi va qat'iyatini his qilishi kerak.

Lekin targ'ibotda g'oyalarga e'tiborni tortish bilan ham qanoatlanish mumkin emas. Chunki e'tiborni jalb qilish-targ'ibotning birinchi bosqichi, xolos. Targ'ibotning keyingi bosqichi g'oyani to'g'ri va atroflicha tushuntirishni talab qiladi. Chunki olimpizmni tushunish — unga ishonish demakdir. Ana shu yerda bir savolga duch kelamiz: nima ko'proq ishonch uyg'otadi: jiddiy dalillar bilan asoslangan axborotmi yoki hissiyotlarni uyg'otuvchi ma'ruzami? Targ'ibot davomida insonning hislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta. Lekin ishonchli dalillar, e'tiroz uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi bu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz haqidagi fikrni uyg'otadi. Targ'ibot jarayoni shu yerda tugaydi, deb o'ylaydiganlar katta xato qiladilar.

O'zbekistonda Olimpizm ta'limini berish tajribasida ko'tarilgan masalaning muhimligi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak bizda "olimpizm" haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas.

O'zbekistonda olimpizm ta'limiga asosan ikki yo'nalishda: Milliy olimpiya qo'mitasi doirasida va milliy olimpiya akademiyasi vositasida amalga oshirilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, bizda ham olimpizm ta'limini amalga oshiruvchi maskan sifatida ta'lim muassasalari tanlangan. Chunki ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Lekin ta'lim tizimida targ'ibot-tashviqotdan maqsad faqat bilim berish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat ekanligini unutmasligimiz lozim. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak olimpizm ta'limini o'qitilayotgani hali uning tashviqotiga erishildi degani emas. Demak maqsadlarni aniq o'quv vazifalari shakliga keltirishimiz, olimpizm ta'limidagi asosiy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur.

Shu o'rinda olimpizm ta'limini o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima o'zi, degan savolga javob izlab ko'rish lozim. Asosiy maqsad — zamon talablariga mos jismonan, ruhan va aqlan barkamol insonni tarbiyalashdan iborat. Shunday ekan, fuqarolarda qaysi sifatlarni shakllantirish evaziga mamlakatni yuksaltirish mumkinligi haqida jiddiy o'ylab ko'rish va g'oyaviy tarbiyani ana shu asosda tashkil etish lozim. Buning uchun fuqaroning istalgan modeli haqida o'ylab ko'rish, komil inson qiyofasini yaratish zarur. Xo'sh, qaysi g'oyalar davlatimizning taraqqiyoti, iqtisodiy ravnaqi va ma'naviy yuksalishiga turtki beradi? Biz yosh avlodga qaysi qadriyatlarni singdirishimiz kerak? Ularda qaysi sifatlarni tarbiyalamog'imiz darkor? Bunda, avvalo, har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratish, g'oyaviy tarbiya vositasida shaxsning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir bolaning iqtidorini rivojlantirishga urg'u berish zarur.

Buning uchun inson passiv ijrochilikdan emas, balki faol tashabbuskorlikdan ko'proq manfaatdor ekanligiga ishonitirish kerak. O'quv jarayonida bu vazifani hal qilish uchun ta'lim jarayonini "yodlash"dan xalos qilish va uni muammolarni hal qilishga yo'naltirish zarur. Shaxsning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. G'oyaviy tarbiyani tashkil qilishda nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish, bilimlarni harakatlarga aylantirish muhim sanaladi. Buning uchun pragmatik fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy axborot vositalari g'oyaviy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari hisoblanadi. Yoshlarda insonparvar, halol va adolatli shaxsni tarbiyalash, shaxsni o'zi ustida qunt bilanishlashga o'rgatish, unda o'ziga ishonchni qaror toptirishdan ham manfaatdormiz.

Ommaviy axborot vositalari - eng asosiy, qudratli va ta'sirchan targ'ibot vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos

tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, olimpizmning insonparvar tamoyillari tashviqot va targ'ibot qilinadi.

Ta'kidlash joizki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi.

Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlash masalasiga davlat darajasida e'tibor berilmoqda. Ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda olimpizm targ'iboti dolzarb masalalardan biriga aylanayotganini inobatga oladigan bo'lsak uning targ'ibot-tashviqotiga ham yangicha texnologiyalar, usullar, vositalarni jalb qilish foydadan holi emas. Olimpizm ta'limi targ'ibotining ta'sirchanligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini kuchaytiradi.

Olimpizm targ'ibotida yangi texnologiyalarni qo'llashda jahonning qator davlatlarida bu borada to'plangan ilg'or tajribalardan foydalanish ayni muddao bo'ladi.

Olimpizm ta'limini berish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rasm bo'ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda yangi texnologiyalar faqatgina ishlab chiqarishda emas balki ta'lim sohasida ham joriy etilgan.

Fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sportning rivojlanish darajasi mamlakat yutuqlarining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport barcha davlatlar va xalqlarning kundalik faoliyati sifatida tarkib topgan hamda ularning jahon miqyosida ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlarni o'zida ifodalovchi ijtimoiy faoliyatdir. Uning vujudga kelish va taraqqiyot yo'li uzoq davrlarni va faoliyatlarni o'z ichiga olib shu tarkibda olimpiya ta'limi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Olimpiya ta'limi va qadriyatlarini o'rganish – "Olimpizm orqali ta'lim", jismoniy tarbiya va sportni boshqa fanlar bilan olimpiya an'analari milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyalash jarayoni kechmoqda.

O'quv tarbiya jarayonida olimpizm g'oyalarini tushuntirish, targ'ibot qilish olimpiada harakatini rivojlanishida asosiy o'rinni egallaydi, ular jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarga ko'ra ta'lim muassasalarida olimpiya ta'limi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchi talabalarga yetkazish, ularning samaradorligini oshirish zarurligi aniqlanmoqda.

Olimpiya ta'limi bo'yicha ko'pgina mamlakatlarda dasturlar, turli ilmiy-uslubiy manbalar yaratilgan bo'lib, olimpiya ta'limini o'rgatish va g'oyalarini targ'ibot qilishda qo'llanilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda olimpiya ta'limini samarali tizimini yaratish uchun ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xorijda va mamlakatimizda yaratilgan manbalarda olimpiya ta'limi va g'oyalarini targ'ibot va tashviqot qilishning samaradorligini oshirishda, gumanitar fanlar doirasida, jismoniy tarbiya va sportga aloqador tashkilotlar bilan amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan.

Olimpizm talimini o'quvchi yoshlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Ular: Ta'lim va tarbiya. Olimpizmni yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarning yoshiga mos ravishda olimpizm g'oyalari, qadriyatlari va tamoyillarini singdirishning o'ziga xos pedagogik-psixologik dasturini yaratish;

- kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-yoshlarda olimpizm ta'limini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

- o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda olimpizm ta'limini teran aks ettirish;

- maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda olimpizm ta'limini berishni bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;

- pedagog kadrlarning olimpizm ta'limi borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Fan va ilmiy muassasalar olimpizm ta'limini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu borada quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma'lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalar) hisobga olgan holda, olimpizm ta'limini tashkil etishning samarali yo'llarini keng ko'lamda ilmiy tadqiq etish;

- olimpizmning milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an'analar va intellektual qadriyatlarini shakllantirish va boyitishdagi o'рни va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish;

- olimpiya harakatining jahonshumul jarayonini o'rganish, uning monitoringi, bu harakatning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash;

- yuqoridagilarni amalga oshirishning samarali yo'llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar olimpizmni shakllantirish va xalqimizga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu dargoxlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, olimpizmning mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlama tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Adabiyot va san'at. Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohiyatini olimpizm ruhida barkamol inson tarbiyasiga yo'naltirish ustuvor yo'nalish bo'lishi darkor. Ijodkorlarni qadimgi va zamonaviy olimpiya harakatining murakkab va shonli tarixining yorqin sahifalarini, uning bugungi hayot voqeligini, olimpizmning olijanob insonparvarlik g'oyalarni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriyl san'at asarlari yaratishga har tomonlama rag'batlantirish.

Yoshlarga ibrat bo'la oladigan sportchilar, qadimgi va zamonaviy olimpiya o'yinlari qahramonlari timsolini yaratish. Olimpizmning insonparvar g'oyalarni tarannum etishga, "fair play" tamoyillariga zid g'oyalarning zararli moxiyatini ochib berishga ayniqsa e'tiborni kuchaytirish zarur. Odamlarni jismoniy, ma'naviy va estetik tarbiyalash uchun sportni targ'ib etish, sportchi yoshlarni do'stlik va o'zoro tushunish ruhida tarbiyalash muxitning sog'lom bo'lishiga erishish.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir. Sport irodani toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Vatan, xalq shuxratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir. Sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta'minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartidir.

Oila. Oila-tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanib olimpizm g'oyalarni bolalarga yetkazishda ahamiyatlidir. Chunki oila - jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Oiladagi sog'lom muhit — sog'lom ruhni shakllantirish manbaidir.

Mahalla. O'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'alariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibрати, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Mahalla - avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli

ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. SHu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida olimpizmning targ'ibot ishlarini samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, tinchlik, osoyishtalik, o'zaro tushunish va o'zaro hurmat, tinch jamiyatni yaratish, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos.

Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan bo'lib hisoblanadi. Mehnat jamoalari turli millat va dinga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlik, o'zaro manfaatdorlik, o'zaro tushunish va o'zaro hurmat, tinch jamiyatni yaratish asosida hamkorlik qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida sog'lom ma'naviy muhitni vujudga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar olimpizm targ'ibotida ishtirok etishi zarur. Respublika Milliy olimpiya qo'mitasi, Olimpiya akademiyasi bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, shuningdek, Oila ilmiy-amaliy markazi, Faylasuflar jamiyati, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar olimpizmning asosiy maqsadalarini targ'ibot etishda muhim o'ringa ega. Shuningdek, olimpizm targ'ibotini joriy etishga moddiy, tashkiliy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan "Sog'lom avlod", "Kamolot", "Oltin meros", "Amir Temur", "Iste'dod", "Mahalla" jamg'armalari va boshqa jamoat tashkilotlari ham katta imkoniyatlarga ega.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, olimpizmning insonparvar g'oyalarini xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda alohida o'rin tutadi. Ular ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. "To'rtinchi hokimiyat" hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg'otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim. Shunga e'tiborni qaratish lozimki, bular olimpizm targ'ibotini amalga oshirishda o'ziga xos alohida subektlardir. Shuning uchun, ular o'z faoliyatida bevosita amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirish bilan birga olimpizmi targ'ibot texnologiyalaridan bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shu sohalarning rivojlanishiga hamda olimpizm targ'iboti texnologiyalari bilan mos kelishiga

ko'maklashadi.

Targ'ibot texnologiyasi olimpizmning mazmun-moxiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin. O'zbekistonda olimpiya ta'limi jarayonlarini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan erkin, demokratik tarzda o'tkazilishini ta'minlash;

- olimpizm targ'ibotining sifatini zamonaviy uslublar asosida muntazam oshirib borish;

- davr talablaridan kilib chiqqan holda targ'ibot ishlarni tashkil etishning yanada yangi, samarali yo'llarini izlash;

- an'anaviy uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik, uni zamonaviylashtirish;

- targ'ibot jarayonlarini tashkil etishda ijtimoiy muhitni, mavjud muammolarini hisobga olish;

- ushbu jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik ko'rinishlariga barham berish;

- targ'ibotning faoliyat texnologiyalarini qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Olimpizm ta'limining targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi texnologiyalar va tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- keng qamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a'zolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida olimpizmnı singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi;

- umumiy maqsadga yo'naltirilganlik;

- insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish, Kubertinning "Rivojlangan tanada yuksak ruh!"shioriga to'liq mos keladigan ko'p qirrali va har tomonlama rivojlangan olimpiya sportchisini tayyorlash olimpizmning bosh maqsadi qilib olinadi;

- uzluksizlik - olimpizm targ'ibotining makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili olimpizmning o'quvchi yoshlar ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan ta'lim maydoni yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta'lim tizimidagi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko'rgazmali qurollar olimpizmga uyg'un bo'lishini taqozo etadi.

- ketma-ketlik - har bir bosqich uchun olimpiya qadriyatlarni singdirish maqsadida olimpizm tashviqoti rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlik - olimpizmnı targ'ib qilishning ruhiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, ham targ'ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik

bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi. Aytaylik, boshlang'ich sinf o'quvchisiga olimpizmning falsafiy va tarixiy ildizlari to'g'risida gapirish noo'rin bo'lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bog'chada, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari va mehnat jamoalarida olimpizm ta'limi va tarbiyasi o'quvchilarning yoshi, bilimi, ma'lumoti kabi jihatlarini hisobga olib borilishi kerak;

- meyoriylik - aksiltarg'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;

- shaxsiy ibrat - olimpizmni targ'ib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o'quvchilarga millat manfaatlari, orzu-umidlari, xalqlarning tinchlikka intilishlari, "fair play" tamoyillari to'g'risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o'zi hayotda shularga zid ishlarni qilsa, bu targ'ibotning samarasi nolga teng bo'ladi.

- ilg'or targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish - bunda olimpizm targ'ibotiga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Olimpizm ta'limining targ'iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va'z aytish va ma'ruza o'qish kabi targ'ibot shakllari yordami bilangina o'quvchi yoshlar ongiga singdirib bo'lmaydi. Maqsadga erishish uchun targ'ibotning faol shakllaridan, zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchi yoshlar orasida targ'ibot olib borilganda munozara, bahs, davra suhbatlari kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to'laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruhiy xususiyatlari va'z va ma'ruzalarni emas, ko'proq interfaol usullar va sanab o'tilgan targ'ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi. Mazkur targ'ibot tamoyillari olimpizmni o'quvchi yoshlar ongiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xildir. Turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda o'quvchi yoshlarning pedagogik xususiyatlari kabi omillarni olimpizmni ularning ongiga singdirishda e'tiborga olish zarur va muhim.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rusum bo'lmoqda. Chunki asrimizda keng qamrovda va jadal sur'atlarda tarqalayotgan informatsiyalar insonning istaklarini, didini o'zgartirishga, fikriga ta'sir qilishi mumkin. Tan olish kerak, tomosha qilinayotgan seriallardan tortib bolakaylarga aytib beriladigan ertakkacha, boringki, o'qiyotgan kitoblarning ham qandaydir mafkuraviy ta'sir samarasiga ega - ularda muayyan g'oyalar targ'ib qilinadi. Bu holat «Eng asosiy narsani ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydi» degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Bunday ko'zga ko'rinmas qudratli targ'ibot kuchlari kishini hamma yerda va har kuni qurshab turadi. Bu kuchlarning maqsadi – insonni nimagadir

ishontirish, nimagadir undash, nimagadir og'dirishdir. Tadbirkor mahsulotini reklama qilib, uni sotib olishga undaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning taqdiri, so'zsiz, har bir fuqaro, aniqrog'i insonning faolligiga bog'liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini tushuntirishni talab qiladi.

O'zbekistonda komil inson g'oyasida e'tirof etilgan erkin shaxsga mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish, insonparvar yo'nalishdagi hissiyotlar va tajribalar tizimi (Olimpiya harakatining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun; estetik sport go'zalligi hissi, har qanday axloqiy buzuvchilik bilan bog'liq qayg'u hissi sportda va insonparvarlik qadriyatlari sporti orqali amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyat hissi) va boshqa vazifalarni amalga oshirish muhimdir. Shuning uchun ham mafkuraviy targ'ibot texnologiyalaridan foydalanishda:

- Targ'ibotning xolisligi;
- Sog'lom, ezgu maqsadlarni ko'zlash;
- Bir tomonlama maqsadlardan xoli bo'lish;
- Xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlariga hurmat bilan qarash;
- Demokratik tamoyillar, inson erkinligi huquq va manfaatlarini ustuvor deb bilish;

- Xalqlar o'rtasida Olimpiya o'yinlari va Olimpiya harakati haqidagi, ularning tarixi, maqsadlari, vazifalari, olimpizmning asosiy g'oyalari va qadriyatlari haqidagi (shu jumladan «Fair Play» tamoyillari, barkamol rivojlangan olimpiya sportchisining ideallari va boshqalar haqida);

- sportga bo'lgan qiziqish, muntazam sportga bo'lgan ehtiyoj, imkon qadar yuqori sport natijalari ko'rsatishga intilish;

- sportning bunday yo'nalishi, avvalambor, jismoniy madaniyatni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, u sog'lom turmush tarzining bir qismi sifatida, shuningdek estetikaning, axloqning, madaniyatning namoyishi, insonlarning insonparvarligi bir-biriga va tabiatga munosabati, insonning jismoniy va aqliy qobiliyatini nazorat qilishga va boshqalarga ta'sir ko'rsatish;

- Pul topish shuhrat qozonish uchun emas, balki sog'lom turmush tarzi uchun faol sportga bo'lgan ehtiyoj, ularning jismoniy va ma'naviy (intellektual, ma'naviy, estetik) qobiliyatlarini uyg'unlashtirish, har tomonlama rivojlantirish

- Olimpiya o'yinlariga qatnashishga intilish va ularda vijdonan, oliyjanob, mardonavor o'yin ko'rsatish (adolatli o'yin tamoyillariga muvofiq);

- faqatgina bir tomonlama rivojlangan sportchi emas, rekord egasi emas, balki Kubertinning "Rivojlangan tanada yuksak ruh!" shioriga to'liq mos keladigan ko'p qirrali va har tomonlama rivojlangan olimpiya sportchisini tayyorlash;

- Fikr erkinligini hurmat qilish asosida fikriy mushtaraklik, hamjihatlik g'oyalarini targ'ibot etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (Янги тахрири). Халқ сўзи. 2015. 5 сентябр.
2. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2017 йил 9 мартдаги “Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) ўтказиладиган XXXII Олимпия ўйинлари ва XVI Параолимпия ўйинларига тайёрлаш ҳақида”ги ПФ-2821-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада риқожлантириш чоратadbирлари тўғрисида” ПҚ-3031 сонли қарори.
4. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. - Т.: “Ўзбекистон”: 2017. - 485 б.
5. Каримов И.А. «Юксак маънавият енгилмас куч». – Т.: 2009 й.
6. Б.Бойбобоев. Олимпия таълими тизимида академияларнинг ўрни ва аҳамияти. Олимпизм – кеча, бугун, эртага: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-назарий анжумани. Наманган. 2018 й.-333 б.
7. Бойбобоев Б.Ғ. Олимпия таълими тизимининг ташкил қилиниши. Фан спортга. Илмий-назарий журнал. 2017 й. 4-сон. 76-79 б.
8. Бойбобоев Б.Ғ. Ўқувчи ёшлар учун олимпия таълимини беришнинг самарали тизimini яратиш. Олимпия спорт турлари– ютуқ ва истиқболлари// Худудий илмий-назарий анжумани. Наманган: 2017.-46-49 б.
9. Мамажонов Д., Юнусов И., Раҳмонов М. П.Кубертеннинг замонавий олимпия концепциясида шахс ривожланиши. // Олимпизм – кеча, бугун, эртага: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-назарий анжумани. Н. 2018 й.-267-269 б.
10. Ниёзов И. Олимпия спорт ўйинлари. (Услубий қўлланма). – Т., “Фан” нашриёти., 2006., 127-бет.
11. Djalilova L. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T. 2013.
12. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. - T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008., 388 bet.
13. Hamroqulov A.Q., Yunusov T.T. Olimpiya bilimlari asoslari, o‘quv qo‘llanma, - T., «Sharq» nashr., 2002, 93-bet.
14. Mualliflar jamoasi. “Olimp sari”. – Toshkent: “Navro‘z”, 2017. – 208 bet.
15. Yarashyev K.D., Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish, darslik, - T., Ibn Sino, 2002, 223-bet.
16. Yunusov T.T., Abdumalikov R., Yarashev K.D., Assolom Olimpiada, - T., O‘zDJTI nashr., 1993.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	4
Olimpiya oʻyinlarini qayta tiklash gʻoyalarining rivojlanishi...	7
P.Kubertenning zamonaviy olimpiya kontseptsiyasida shaxs rivojlanishi.....	12
Oʻzbekiston milliy olimpiya qoʻmitasi faoliyati.....	14
Oʻzbekiston milliy olimpiya qoʻmitasi prezidentlari.....	22
Oʻzbekiston Respublikasi olimpiya akademiyasi va uning faoliyati.....	26
Xalqaro olimpiya akademiyasining olimpiya taʼlimida tutgan oʻrni va ahamiyati.....	29
Oʻzbekiston olimpiya shon-shuhrati muzeyi.....	31
Oʻquvchi yoshlar olimpiya taʼlimi tizimi.....	34
Olimpizm targʻiboti texnologiyalari yoʻnalishlari vositalari va tamoyillari.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.....	55